

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

**XOLMAMATOV ILHOM SHERMAMAT O'G'Lining**

“5120300 Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)” ta'lim  
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“XX asrning 20-30 yillaridagi siyosiy qatag'onlar  
(Qashqadaryo misolida)”**

mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti  
dekani \_\_\_\_\_ prof. B. J. Eshov

Ilmiy rahbar: k.o'qit. G.Ravshanova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017 yil

Qarshi-2017 yil

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Qashqadaryo: XX asr boshlari tarixi.</b>	
1.1. Buxoroda amirlik tuzumining ag'darilishi davridagi o'zgarishlar.....	6
1.2. Qashqadaryo vohasi, uning asosiy shahar va qishloqlarining Qizil Armiya tomonidan tobe etilishi.....	23
1.3. Vohada milliy tashkilotlarning paydo bo'lish omillari, harakatlantiruvchi kuchlari va siyosiy maqsadi.....	40
<b>II bob. Qashqadaryoda amalga oshirilgan qatag'onlik va uning oqibatlari.</b>	
2.1. Sovet hokimiyatining Qashqadaryoda muholifat kuchlar, dindorlar va ziyolilarga qarshi qatag'on siyosati.....	48
2.2. Qashqadaryoda milliy ozodlik harakatiga barham berilishi, vatanparvar kuchlarning qatag'on etilishi.....	56
<b>Xulosa.....</b>	<b>69</b>
<b>Adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>71</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Vatanimiz kechmishiga bo'lgan qiziqish kuchli ekanligini e'tirof etish o'rinli, buning sabablari shubhasiz, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning xalqimiz tarixiga bo'lgan katta e'tibori bilan chambarchas bog'liq, "...Biz tariximizni yoritishda uni davr, muayyan siyosiy guruhlar yoki ayrim shaxslar manfaatiga moslab talqin etishni qoralaymiz. G'oyat murakkab va ziddiyatli tariximizni xolisona va ilmiy o'rganish-tarixchi olimlarimizning mas'uliyatli va olijanob vazifasi deb hisoblaymiz"<sup>1</sup>.

XIX asr ikkinchi yarmidan XX asr oxiriga qadar bo'lgan kechmishimiz Sovet hokimiyati hukmronligi ostida o'tgan edi. Bir yarim asrdan ziyod davom etgan mustamlakachilik qaramligi o'zbek xalqining butun o'tmishi tarixida og'ir asoratlar qoldirdi. Qizil saltanat milliy o'lkalarda juda katta zo'rvonliklar, qattolliklar evaziga o'rnatilgan edi. Jahonda biror davlat yo'qki, u mamalakat ichkarisida o'z xalqiga nisbatan muttasil qirg'inni amalga oshirgan bo'lsa. Sovet hokimiyati tashkil topgan kundan boshlab, zulm va qatag'onga zo'r berildi.

Milliy qarshilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, xalqning boyligi tortib olindi, bosh ko'tarmaslik uchun qatag'on siyosati amalga oshitildi. Sovet tuzumi yillarida o'zbek xalqining siyosiy huquqsizligi, iqtisodiy nochor holga solinishi bilan bir qatorda, uning tarixi ham poymol etildi, ma'naviyati toptaldi, qadriyatlari oyoq osti qilindi. Faqat o'zbeklarning emas turkiy xalqlarning iftihori bo'lgan dunyo tamadduniga katta hissa qo'shgan davlat arboblari allomalar ijodkorlar qora bo'yoqlarga chaplandi. Mustaqillik elimizga ajdodlar qadrlagan, kurashgan ozodlikni bahshida etish bilan birga o'zlikni, qadriyatlarni va tariximizni ham qaytardi. Qashqadaryo O'zbekistonning yirik janubiy vohasi o'laroq, keying

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: O'zbekiston, 1998, -B.10.

asrlar davomida Buxoro xonligi tarkibida bo'lib kelgan edi. Bu o'lkada qizil istibdod 1920-yilning sentabrida hukmronligini o'rnatgan edi. Vohada amirlik qo'lashidan ko'p o'tmay vujudga kelgan "Aksilinqilobiy tashkilot" 1920-yil oxirlariga qadar sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib boradi. Voha xalqi ozodlik kurashchilarini qo'llab-quvvatlaydi. Mustabitlar qarshilik kuchlari ta'minotchi-ko'makchilarini yo'q qilib o'z maqsadlariga erishadilar. Ozodlik kurashi, jamoalashtirishga, sinfiylashtirishga qarshi olib borilgan kurashlar zo'ravon hokimiyatnin talonchilik madsadida amalga oshirishni mo'ljallagan iqtisodiy islohatlarini, sovetlashtirish ishlarini bir necha yilga kechiktirib yuboradi. Milliy ozodlik kurashi tajribalari jamoalashtirish, quloqlashtirish, xullas, qishloqqa qarshi olib borilgan hujum yillarida sovet hokimiyatiga sezilarli zarbalar berishda qo'l keladi. 1920-yildan to 1940-yilgacha bo'lgan davr mustabid tuzumga qarshi faol kurash yillari hisoblangan. Jumladan, biz tadqiq etayotgan XX asrning 20-30 yillaridagi siyosiy qatag'onlar mustabid, qattol tuzum qurbonalri, jabrdiydalari, otilgan, qamalgan, badarg'a etilgan, mol-mulki tortib olingan, quloq qilingan necha o'n ming yurtdoshlarimix ism-shariflari nomma-nom ko'rsatildi, manzillari, musodara etilgan mulklari aniqlandi. Ozodlik kurashi mangulik bo'lgani kabi yurt uchun jon vido qilganlar nomi ham abadiyatga dahldordir. Mavzuning kam o'rganilgan jihatlariga etibor qaratib, haqqoniylik, holislik tamoyillariga asoslanib yoritish ishning dolzarbligini belgilab beradi.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Sovet hokimiyatining milliy o'lkalarni mustamlakaga aylantirish bobida amalga oshirgan tajovuzi, idora etishdagi istibdodi – zulmi va zo'ravonligi, mute'likda saqlash uchun olib borgan qatag'on siyosatini Qashqadaryo viloyati misolida yoritish ishning maqsadi sifatida tanlab olindi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni yoritish belgilandi:

- Vohada sovet hokimiyati amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning asl mohiyatini ko'rsatish;

- Qashqadaryo viloyatida Sovet tuzimiga qarshi kurashni kelib chiqish sabablari va mohiyatini ochib berish;

- Sovet hokimiyatiga qarshi kurash, milliy manfaatlarni himoya qilish maqsadida tuzilgan yashirin tashkilotlar, ularning maqsadi, faoliyatini aniqlash;

- Sovet hokimiyati tomonidan milliy tashkilotlar yetakchilari va a'zolariga nisbatan tazyiq-taq'iblar hamda qatag'on siyosatining sabab va oqibatlarini tahlil qilish;

- Milliy tashkilot a'zolarining qatag'on etilishidagi fojeali taqdirlarini yoritish;

- Qashqadaryoda 20-30 yillarda qattiq amalga oshirilgan zo'ravonlik, qatag'on siyosati eng avvalo, mustabid sovet tuzumiga qarshi kurashgan ozodlik kuchlarining qirib tashlanishini, mehnatkash xalqning qatag'onga tortilishining sabablarini ko'rsatib berish.

**Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati** shundaki, ishda Sovet hokimiyatini zo'rlik bilan qaror topishi, uning iqtisodiy, siyosiy hamda mafkuraviy hukmronligini o'rnatish jarayonida 1920-1930 yillarda qatag'onlik siyosati ilk bor Qashqadaryo viloyati misolida, yaxlit davriy chegarada, birlamchi manbalar asosida, maxsus ilmiy tadqiqot sifatida tadqiq etiladi. Shuningdek, Qashqadaryoda XX asrning 20-30 yillarida amalga oshirilgan mudhish, siyosiy, harbiy, iqtisodiy kompaniyalar jarayonida qatag'on qilingan, tazyiqqa uchragan, qamalgan, otilgan, quloqlashtirilgan, saylov huquqidan mahrum etilgan yurtdoshlarimizning ism-shariflari bayon etildi. Bu keltirilgan ma'lumotlardan vohamizdagi sovet hokimiyatining olib borgan qatag'on siyosati, xalqimizni haqqoniy tarixi bilan tanishirishda mavzuning arxiv hujjatlari va manbalari asosida tadqiq etilishining ahamiyati katta.

**Ishning aprobatsiyasi:** Bitiruv malakaviy ishi Qarshi Davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrasida qoshidagi "Yosh o'lkashunos" to'garagida ma'ruza qilingan.

**Ishning tuzilishi:** Malakaviy ish kirish, ikki bob, to'rt fasl, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat.

## **I.BOB. Qashqadaryo: XX asr boshlari tarixi**

### **I.1. Buxoroda amirlik tuzumining ag'darilishi davridagi o'zgarishlar**

Yurtimiz mustaqilligi tariximizni haqqoniy, asliga monand o'rganishga keng yo'l ochdi. Sovet tarixshunosligida xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, mustabid tuzumga qarshi olib borilgan kurashlar teskari va buzib talqin etildi. O'zbekiston istiqlolining o'tgan yillari davomida xolis va ilmiy tariximizni yaratish bobida ko'lamli natijalarga erishildi. Sovet hokimiyatining vphada yuritgan qatag'onlik siyosati, chor mustamlakachilik tizimi, sho'ro istibdodi kabi mavzularda salmoqli asarlar yaratildi.

XX asrni qonga bo'yagan bolsheviklar inqilobi mash'um oqibatlar qoldirib ketdi. Zo'ravonlik bilan tiklangan qizil saltanat o'zining 74 yillik umrida mustamlakachilik, istibdod bobida Chor Rossiyasidan bir necha karra manfurroq siyosat yurgizdi. Sovetlarning milliy o'lkalarni idora qilishdagi asosiy niyati boyliklarga ega bo'lishdan iborat edi. Mazlum xalqlarga ro'shnolik yetkazish targ'ibot asosi bo'lib, amalda butunlay buning teskarisi qilinardi. Mustabid tuzumning qora niyatlari avval boshdanoq pinhon qolmagan. 1918 yilning 19-26 yanvari kunlaridan Toshkentda o'tgan o'lka sovetlarining IV s'ezdida olchoq Pavlichenko, "Biz musulmonlarga hech narsa bermoqchi emasmiz"<sup>1</sup> deya bosqinchilarning asosiy g'oyasini ifodalagan edi.

Turkiston o'lkasi "Yo'qsillar davlati" idorasiga kiritilgach, sovet hukumati aholiga mustaqillik bermagani kabi, hatto, milliy muxtoriyatni ham ta'qiqladi. "Bu achchiq haqiqatni dastavval barcha Turkiston xalqlari tushunib yetmadi. Buni faqat milliy vatanparvarlar, jadidlar, ayrim rahbar xodimlargina tasavvur qilolgan edilar. Bolsheviklarning makkorona siyosatiga ishonib, uning tarafdori bo'lgan yoki unga xayrixoh bo'lganlar ham oz emas edi... Ozodlik osonlikcha qo'lga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qo'lga qurol olib, bolsheviklar rejimiga qarshi istiqlolchilik harakatini boshlab yubordilar. Sovet mustabid tuzumi

---

<sup>1</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. T., "Sharq", 2000 y. 69-bet.

mafkurasi hukmronligi yillarida ularga “bosmachilar” deya tang‘a osilib, ataylab kamsitilgan edi.”<sup>1</sup>

Buxoro xonligi va uning tarkibiga kirgan hududlar sovetlar asoratiga O‘zbekistonning boshqa viloyatlariga nisbatan biroz kiyinroq, 1920 yilning avgust-sentyabrida tushgandi. Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Samarqand istilosidan keyin o‘tgan 3 yilu 9 oylik muddat Buxoroda va Xiva xonliklari elu ellatlariga Oq podshohdan hukmronlikni tortib olgan qizillarning kimligini, maqsadini bilib olishda yetarli bo‘lgan edi. Xonlik markazi Buxoro qizil armiya qismlari bilan tuqnashuvlar yuz bergach (1928 yil 2 martdagi F.I.Kolesov hujumi), poytaxtdan olis beklklarda ham sovetlar bosqiniga qarshi tayyorgarlik choralari ko‘rila boshlangandi. 1920 yilning avgusti oxirgi kunlarida Sayid Amir Olimxon Buxoroni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Garchand amirlik qulatilgan, uning harbiy kuchlari mag‘lub bo‘lgan esa-da, qarshilik harakatlari barham topmaydi. Buxoroda, Qashqa va Surxon vohalarida, Sharqiy Buxoroda mustabid sovet tuzumi o‘rnatilishiga qarshi milliy ozodlik harakati vujudga keladi. Xonlik hududlarida milliy qarshilik kuchlarining qaror topishi tasodifiy emasdi. Qashqa vohasidagi asosiy beklklarni Sayid Amir Olimxonning yaqin qarindoshlari boshqarib kelardi. Sovet hokimiyatining Buxoroga nisbatan tutayotgan bosib olish siyosati, oshkora tazyiq va qurol ishlatishlar, “Yosh buxoroliklar”ni gij-gijlashlar poytaxtda bo‘lgani singari, beklklarda ham etakni yig‘ishtirishga undar edi. Qarshi, G‘uzor, Beshkent, Kasbi, Denov, Yakkabog‘, Chiroqchi, Shahrisabz, Kitob, Koson kabi shahar va qishloqlarda 1919 yildan e‘tiboran bosqinga qarshi tadbirlar ko‘rilgan. Jangu jadal boshlangudek bo‘lsa, qo‘shin shayligi tadorini ko‘rib qo‘yilgan edi. “Yosh buxoroliklar” ta’sirida “Yosh qarshiliklar” jadidlarning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlar, joylarda amir beklariga nisbatan teskari kayfiyat oshkor qilardilar.

1919 yil taxt uchun juda alg‘ov-dalg‘ovli kechadi. Bolsheviklar qutqusi borgan sari kuchayadi. Qarshida shahar hokimi Tog‘aybek, Sayid Amir Olimxonning qo‘llab-quvvatlashi bilan, ehtimoli kun sayin kuchayib borayotgan

---

<sup>1</sup> O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. T., “Sharq”, 2000 y. 83-bet.

bosqinga qarshi kuchlarni birlashtiruvchi tashkilot tuzadi. Qarshilik tashkilotiga qashqa vohasining quyi hududlarida joylashgan qishloqlarning taniqli amaldorlari, boyu badavlat kishilari, harbiylari, ko‘zga ko‘ringan ruhoniylari a‘zo bo‘ladi. Bir yil davomida qarshilik jamoasi kengayib, unga kirgan kishilar soni 70 taga yetadi. Bu haqda sovet hujjatlarida qayd etilgan ma‘lumotlar saqlangan, xalos. Bosh siyosiy boshqarmaning (GPU) Qashqadaryo okrug bo‘limi tergov guruhi rahbari D.M.yepifanovning 1926 yil 20 martda shu tashkilot faollaridan bo‘lgan Mullo Navro‘z Po‘latov, Xo‘janazar miroxur Inotullaev, Xoja Abdulaziz Boqixo‘jaev, Mahmarayimbek qoravulbegi Abdusattorov, Erka amin Do‘stmurodov, Mullo Tojiddin Salimov, Mullo Ne‘mat Shodmonovlarning sovet hokimiyatiga qarshi qilgan “jinoyatlari” sharhida<sup>1</sup> tashkilot va uning faollari haqida ma‘lumotlar keltiriladi.

D.M.yepifanovning dalolaticha, Sayid Amir Olimxon rahbarligi ostida, Tog‘aybek, uning noibi Nuriddin xoja Og‘oliq, mufti Nusratulla xoja, Qarshining badavlat kishilaridan Sharof Beshgumbaz Habibullaev, Xoja Abdulaziz Boqixo‘jaev va oldinda ismi shariflari zikr etilgan taniqli amaldorlar faolligi bilan “Aksilinqilobiy tashkilot” tuziladi. BSB ning mas‘ul xodimi 70 a‘zosi bo‘lgan uyushmani aynan shunday nomda qayd etadi. “Aksilinqilobiy tashkilot”ning qamrovi katta bo‘lgan. Uning vohaning yuqori qismida, jumladan, G‘uzor, Dehqonobod, Yakkabog‘, Chiroqchi, Shahrisabz, Kitob shaharlarida ham sho‘balari tuzilgan. Bu haqda oldingi ishlarimizda batafsil yozilganligi uchun so‘zni ixtisor qildik. “Aksilinqilobiy tashkilot” o‘zining jangovar faoliyatini Sayid Amir Olimxon Boysunga borib joylashgandan keyin boshlab yuboradi. Qarshi shahrida Sovetlarga qarshi 1920 yilning 7-sentyabrida 10-12 ming kishilik qo‘zg‘olon tashkil etiladi. Isyonchilar bir hafta davomida shaharni egallab olib, qizil armiyaning shaharda qoldirilgan qismini yakson qilib, jadidlar – “Yosh qarshiliklar”ni, inqilobchi yevropaliklarni olomon qiladi, bir qanchasini o‘ldiradi. Oradan ikki oy o‘tib, mustabid tuzumni ag‘darib tashlashga qaratilgan g‘alayonlar-

---

<sup>1</sup> Alimova D.A., Golovanov A.A. O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlar. –T., «O‘zbekiston», 2000. 3-14-betlar.



qurolli qo'zg'olonlar Yakkabog', Chiroqchi, Shahrisabz va Kitobda ham amalga oshiriladi. Qurolli isyonlar sovetlar tomonidan katta mashaqqatlar bilan bostiriladi. Buxoro xalq sovet respublikasining Qashqa vohasida avjga mingan xalq ko'tarilishlarini (Shahrisabz qo'zg'olonida 15 mingdan ziyod aholi qatnashadi) bostirishga qurbi yetmay, shoshilinch ravishda Samarqanddan armiya qismlarini so'rashga majbur bo'ladi. Oqibatda, qo'zg'olonlar shafqatsiz ravishda bostiriladi, isyon sabab hafta-o'n kun qo'lga olingan shaharlar yana sovetlar tomonidan egallanadi.

Mustabid sovet tuzumi o'rnatilishiga qarshi milliy ozodlik harakati 1918 yil fevralidan so'ng, ya'ni Turkiston muxtoriyati hukumatining yo'q qilinishi sababli boshlanib ketganligi sovet manbalarida qayd etilgan. Aslini olganda, sovet hokimiyati o'rnatilishiga qarshi kurash, bu muxtoriyat ag'darib tashlanmaganda, yoinki, umuman tuzilmaganda ham vujudga kelishi tarixan qonuniy va tabiiy bir hol edi. Chunki, hokimiyatga to'ntarish natijasida kelgan bolsheviklar o'rta qo'ygan kommunistik g'oyalar o'zbek xalqi uchun mutlaqo yot<sup>1</sup> tushuncha bo'lib, asrlar davomida qattiq o'rnatilgan e'tiqodga, turmush tarziga tamoman teskari edi. Boshdanoq yo'qsillar mafkurasi omma tomonidan qabul etilmagan.

Sovetlar davlat idorasiga kirishgan dastlabki kunlardan ham hokimiyatni boshqarishga mahalliy halq vakillarini aralashtirmadi. Kamsitish nazari bilan qarash, milliy g'ururni toptash, o'zlarini ho'jayin maqomida tutish haqqoniy noroziliklarga sabab bo'lmay qolmasdi. Bolsheviklar mahalliy aholining urf-odatlarini, qadriyatlarini, milliy o'zligi xususiyatlarini bilan hisoblashmadi, ularni beayov toptash yo'lini tutdi. Shular va yana bir qancha boshqa sabablar bosqinchilikka qarshi xalq ko'tarilishiga olib keladi. Bu harakatni birgina Turkiston muxtoriyati halokatiga bog'lash bir yoqlama bo'lib, mazkur qarash xalqning kurashidan chetda turganligini, sovetlarni ag'darib tashlash hokimiyat talab bir qism kishilar uchun kerak bo'lganligini asoslovchi maqsadga xizmat qilardi.

---

<sup>1</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida, Ikkinchi kitob, "Sharq", T.2000, 84-bet.

Buxoro xonligi Frunze rahbarligidagi qizil armiya tomonidan 1920 yilning 2-sentyabrida tugatilgandan keyin, poytaxtning samolyotlardan bombardimon qilingan qadimiy obidalarida, tig'iz mahallalarida yuz bergan yong'inlar o'chmay turib, amirlik hududlarida sovet hokimiyatiga qarshi ozodlik kurashi boshlanib ketganligi yuqorida aytilgan xulosalarning to'g'ri ekanligini dalolat etadi. Gap milliy muxtoriyat yoxud uning qulatilishida ham emas edi. Bu yerda gap har qanday millat, har qanday davlat uchun taqdirshumul, hayotiy muhim bo'lgan ozodlik bobida edi. Buni Buxoroda Sayid Amir Olimxonning taxtdan ag'darilishi va sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan bog'liq holda vujudga kelgan milliy ozodlik harakati misolida ko'rish mumkin bo'ladi. Xonlikning Buxoro Qorako'l, Qarshi, Yakkabog', Shahrisabz, Boysun, Sherobod va bo'lak manzillarida sovet hokimiyatini ag'darib tashlash kurashi boshlanganida, Turkiston muxtoriyatining tor-mor etilganiga ikki yilu yetti oy bo'layotgan edi. Sovet davlatining avji kuch ustida bo'lgan davrida yozilgan kitoblardan birida: "bosmachilik harakati Buxoroning asosiy rayonlarida halq demokratik inqilobidan keyin darhol boshlanib ketdi. Uni tashkil etganlar va boshqarganlar taxtdan qulatilgan sobiq Sayid Amir Olimxon, uning da'vati bilan yosh respublikaga, ya'ni Buxoro xalq sovet respublikasiga qarshi qurolli kurashga ko'tarilgan feodal-boy ezuvchilar, mutaassib ruhoniylar rahnamolari, millatchilar va xalqqa yot bo'lgan boshqa unsurlardan iborat edi"<sup>1</sup> deyiladi.

Keltirilgan bu iqtibosda ashaddiy sovet ruhi bo'rtib turganiga qaramasdan, unda tarixiy haqiqat tan olinganligi diqqatga loyiq. Haqiqatda, Buxoro xonligining asosiy shahar va qishloqlarida, garchand, Sayid Amir Olimxon taxtdan ag'darilgan, Buxoroni tashlab chiqqan bo'lsa-da, uning ketganidan hafta o'tar-o'tmas sovetlarga qarshi qurolli kurashlar amalga oshiriladi.

Buni Bosh siyosiy boshqarma (GPU) xodimi D.M.Yepifanov oldinda zikr etilgan "Sharh"ida shunday ko'rsatadi: "Buxoroda amirlik qulagandan so'ng, Amir Qarshiga qochib keladi. Amirni "Aksilingilobiy tashkilot" a'zolari qizg'in kutib oladi. Amirning da'vati bilan o'sha paytda Qarshi shahrida yashayotgan

---

<sup>1</sup> Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана, Т., "Фан", 1968, с.62.

yevropaliklarga nisbatan milliy qutqu asosida qirg'inga zo'r beriladi." Qashqa vohasida 1920 yilning sentyabr oyi boshida shakllangan, jangovar kuchga aylangan qarshilik harakati dastlabki paytda Sayid Amir Olimxonni qayta taxtga tiklash maqsadi bilan ish ko'radi. Qarshi shahrida amalga oshirilgan qurolli qo'zg'olonning qizil armiya qismlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilishi, ming-minglab isyonchilarni qirib tashlashi voha aholisi nafratini oshirib yuboradi. Qishloqlar aholisi butunlay sovetlarga qarshi kayfiyatda bo'ladi. Isyonni tashkil etgan rahnamolarning bir qismi qizillarga qarshi kurashda shahid bo'ladi, ayrimlari Sayid Amir Olimxon yoniga ketadilar. Nuriddin xoja Og'oliq, Mullo Navro'z Po'latov, Xo'janazar Inotullaev, Tojiddin Salimov, Xoja Abdulaziz Boqixo'jaev, Erka amin Do'stmurodov, Mullo Ne'mat Shodmonov, Mahmarayimbek Abdusattorov kabi sanoqli faollar tirik qoladilar. Elning bosqinchilarga nisbatan qarshi kayfiyati ularni kurashni davom ettirishga ruhlantiradi. Mag'lubiyatdan keyin o'tgan uch-to'rt oy ichida mustabidlarga qarshi kurash rejasi pishiriladi. Bu jihatdan BSB (GPU) Qashqadaryo okrug rahbarlaridan biri D.M.yepifanovning quyidagi mulohazalari e'tiborga loyiq. U, "Qo'zg'olon ko'targanlar qizil armiya qismlari bilan birinchi to'qnashuvdayoq mag'lubiyatga uchraganligi sababli, g'alayon rahbarlari qizil armiya bilan isyon vositasida urushib bo'lmasligini, unga qarshi huddi muntazam qizil armiya qismlari kabi guruhlar tuzib kurashish kerakligini tushunib yetadilar. Natijada boshlagan ishlarini davom ettirib, Buxoro Amirining Afg'onistonga qochishiga ko'mak beradilar, undan sovet hokimiyatiga qarshi kelgusida qanday kurash olib borish haqida ko'rsatmalar oladilar", deydi.

Viloyat ijroiya qo'mitasining 1924-1925 yil birinchi yarmi uchun qilingan hisobotida, Qashqadaryoda "bosmachilik 1921 yilda, Amirning Afg'onistonga qochganidan so'ng boshlanganligi"<sup>1</sup> e'tirof etiladi. Aksilinqilobchilar bu orada Yakkabog'da (1920 yil 15-dekabr), Shahrisabzda (1920 yil 24-dekabr) sovetlarga qarshi ommaviy qo'zg'olonlar uyushtiradilar. Har ikkala isyon ham qonga botiriladi, o'n minglab qurolsiz, norozilik niyatida maydonga chiqqan dehqonlar

---

<sup>1</sup> Ravshanova G. Qashqadaryo: XX asr boshlari tarixi. T., Yangi asr avlodi. 2016. 25-bet.

otib tashlanadi. 1921 yilning bahori aksilinqilobchilarning o'zlarini o'nglash davri bo'ladi.

1921 yilda, ayniqsa, uning oxirlarida Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo Sharqiy Buxoroda sovetlarga qarshi otlangan beklar, sarkardalar, qo'rboshilar, din namoyondalari, el oqsoqollari soni yuzdan oshiq bo'lgan. Har bir bekning, qo'rboshining 500 dan 1000 ga qadar jigitlari bo'lgan. Ularning qariyb teng yarmida miltiq tugul, oddiy qilich ham yo'q edi. Shunga qaramay, bosqinchilarga qarshi hayot-mamot janggini ixtiyor qilayotgan ko'ngillilar safi kun sayin oshib borardi. 1922 yilning sentyabr oyida Buxoro hududida 10 ta qo'rboshi harakatlanadi. Ularda 10 ta pulemyot ham bo'lgan. Manbalarda xalq lashkari soni ancha kamaytirilib, 3120 ta deb ko'rsatiladi. Sayid Amir Olimxon o'rnashgan Sharqiy Buxoroda qo'lga qurol olganlar adadi 17000 ga yetadi.

Turkiyaning milliy qahramoni, taniqli davlat arbobi Anvar posho 1921 yil oktyabrda Buxoroga keladi va bolsheviklarga qarshi kurashayotganlar tarafiga o'tadi. 1922 yilning 15 aprelida Boysunning Kofirun qishlog'ida Turkiston qo'rboshilarining quruotoyida Anvar posho sovetlarga qarshi kurashuvchi kuchlarning oliy bosh qo'mondoni va siyosiy rahbari etib tayinlanadi. Istanbulda 1881 yilda tug'ilgan, 27 yoshida generallik-posholik unvoniga erishgan, birinchi jahon urushida Turkiya armiyasining qo'mondoni bo'lgan Anvar posho chinakamiga dovyurak, harbiy mahorati yuksak inson bo'lgan. Uning bosqinchilarga qarshi kurashayotgan halq lashkarlari boshini birlashtirish, kuchlarni jipslashtirish, harbiy harakatlarni markazlashtirilgan holda boshqarish yo'lidagi intilishlari sezilarli samara beradi.

Qashqadaryo tuprog'ida yurtning istiqloli uchun maydonga tushgan jigitlar soni 20 mingdan oshar edi. Elda taniqli bo'lgan sobiq amir amaldorlari - dodholar, to'qsobalar, miroxurlar, jivachilar, qoravulbegilar, shuningdek, mullolar, eshonlar, boy-badavlat kishilar, oddiy dehqonlar katta-kichik guruhlarini boshqarar edilar. Guruhlar boshliqlarini "Qo'rboshilar" deb atardilar. "Qo'r" deyilganda, katta davra tushunilgan. Odatda qo'rlar to'ylarda, yalang maydonlarga gilamlar to'shalib, ko'rpachalar solinib, bir yo'la 100-200 mehmon o'tirib-turishiga mo'ljallangan

davrani ifodalagan. Shunga ko‘ra, “Qo‘rboshi” atamasi katta guruh boshlig‘i ma‘nosini beradi. O‘zbekiston yangi tarixining 2-kitobida “qo‘rboshi” unvoni “general” darajasiga teng”, deb ko‘rsatiladi.

Vatanni mustabid bosqinchilardan qutqarishni maqsad qilgan kurashchilar o‘z saflaridagi harbiy uyushqoqlikni mustahkamlash maqsadida, qo‘shin boshqaruvining yaxlit tizimini ishlab chiqqan edi. “Qo‘rboshi” – general, “dodho” – general-mayor, “to‘qsabo” – polkovnik, “miroxur” – podpolkovnik, “Qoravulbegi” – kapitan, “jivachi” – leytenant<sup>1</sup> unvonlariga muqobil ravishda joriy etilgandi.

1921-1922 yillarda sovet hokimiyatiga qarshi ozodlik kurashi shiddatli tus olib, Buxoro xalq sovet respublikasini tang ahvolga solib qo‘yadi. Bu vaqtda butun boshli sovet tashkilotlaridan xizmatchilar yoppasiga istiqloqlolchilar tarafiga o‘tib ketadilar. Qashqadaryo okrug militsiya bo‘limi boshlig‘i Doniyorbek o‘z qo‘l ostidagi 200 chog‘li qurollangan militsionerlar bilan Anvar posho kuchlari qatoriga qo‘shiladi. 1922 yilda BSB (GPU) organlariga yog‘ilgan maxfiy ma‘lumotnomada, “Koson tumani ijroqo‘mi va nachalniklari va maorifchilari (o‘qituvchilar) bosmachilar bo‘lib chiqqanligi”<sup>2</sup> ko‘rsatib o‘tiladi.

Ijroiya qo‘mitaning yuqorida keltirilgan hisobotida, viloyatda qolgan ko‘zga ko‘ringan amaldorlar va ruhoniylarning Jabborbek, Doniyorbek kabi qo‘rboshilar rahbarligida Shahrisabz va G‘uzor uездlarida kuchli va jips guruhlar tuzishga muvaffaq bo‘lganligi, ularning Afg‘onistondagi muhojirlar – sobiq Amir qarorgohi bilan aloqa bog‘laganligi qayd etiladi. Vohaning yuqori qismida Jabborbek, Shayman miroxur, Mavlonbek, Abdul Hofizxo‘ja Fayozxo‘ja o‘g‘li, Boboxo‘ja Muqimxo‘ja o‘g‘li, Nazar Abduqodirov, Rajab amin, Umar amin, Sudur eshon Abdovorisi o‘g‘li singari taniqli, elda obro‘li kishilar sovet hokimiyatiga qarshi harakat boshida turgan edilar. Shu hisobotdagi bir xulosaning tarixiy ahamiyati benihoya katta, unda “1924 yilning boshiga qadar bosmachilar sonida o‘zgarish bo‘lmadi, ularni yo‘q qilish nihoyatda murakkab va og‘ir sharoitlarda amalga

---

<sup>1</sup> А.И.Ишанов. Бухарская народная советская республика, 56-бет.

<sup>2</sup> Ravshanova G. Qashqadaryo: XX asr boshlari tarixi. T., Yangi asr avlodi. 2016. 56-bet.

oshirildi. Aholi, juda kam foizi deyilmasa, butunlay bosmachilar tomonida bo‘ldi”<sup>1</sup>, degan e’tirof qayd etiladi.

Qashqadaryo viloyati xalqining sovetlarga qarshi kuchlar tomonida bo‘lishi, ularni qo‘llab-quvvatlashi vohada vujudga kelgan, 1921 yildan to 30-yillar so‘nglariga qadar davom etgan qarshilik harakatining milliy ozodlik yo‘nalishini belgilovchi muhim, rad etib bo‘lmas omildir. Aholining “juda kam foizi” kimlar edi, bu savol ham javobsiz qolmasligi kerak. “Ular Turkistonda mavjud bo‘lgan zavod va korxonalarda yevropalik ishchilar bilan yonma-yon ishlagan, ularning ta’siriga berilgan mahalliy aholi vakillaridan bo‘lgan ishchilar, shaharlarda oilasini boqish uchun sarson bo‘lib ish qidirib yurgan ishsizlar (mardikorlar), qishloqlarda yersiz bo‘lib, chorikorlik, mardikorlik qilib kun kechirib yurgan kambag‘al dehqonlarning bir qismini tashkil qilar edi”. Bu aytilgandan kelib chiqib, mohiyatni Qashqa vohasiga tatbiq etadigan bo‘lsak, qamrov yanada tarayadi. Chunki, XX asrning 20-yillarida, sovetlar xuruji amalga oshirilgan davrda Qashqa vohasining Qarshi, Shahrisabz, singari yirik shaharlarida ham sanoat tarmoqlari yo‘q edi. Bunda, birgina temir yo‘l shoxobchalarini dalil etish mumkin bo‘ladi. Temir yo‘l sohasining aksar ishchi-xizmatchilari yevropaliklar bo‘lib, Qarshida ular soni 800 taga yetishi manbalarda ko‘rsatilgan. Mahalliy aholi vakillaridan temir yo‘l “qora ishlariga” jalb etilganlari soni barmoq bilan sanarli darajada bo‘lgan. Shunga ko‘ra, sovet hokimiyatiga xayrixohlar, ijroiya qo‘mita hisobotida tantilik bilan aytilganidek, “juda kam foizni” tashkil etganligi taajublanarli hol emas.

Sobiq Buxoro xonligining deyarli barcha hududlarida sovet hokimiyatini ag‘darib tashlashni maqsad qilgan jangovar kuchlar 1920 yilning oxirlari – 1921 yilning boshlarida tayyor holga keltirilgan edi. Sharqiy Buxoroda mustahkamlangan Sayid Amir Olimxon taxtga tajovuz qilgan bolsheviklarni haydash uchun kuchlarni birlashtirishga qattiq sa’y-harakat qiladi. Bu maqsadni amalga oshirish, kurashchilar faoliyatini muvofiqlashtirish ishlariga Qushbegi

---

<sup>1</sup> Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Qatag‘on. III jild. T., Sharq. 2011. 17-bet.

Nizomiddin xoja Devonbegi va G‘uzorning sobiq begi Bo‘ri to‘qsobalar mutasaddi qilinadi.

1920 yilning oxirlarida Qashqa vohasining yuqori hududlarida sovetlarga qarshi xalq lashkarlari soni 15 mingga qadar yetkaziladi. Vohaning quyi qismida – Qarshi va uning tevarak-atroflarida ham qizillar hokimiyatiga barham berishni qasd qilgan fidoiylar soni 10-12 mingdan kam bo‘lmagan.

Koson tumani ijroiya qo‘mitasi raisi muovini vazifasida ishlagan, Arabxona qishlog‘idan bo‘lgan Turdi to‘qsoba qo‘l ostida 600 jigit sovetlarga qarshi kurashadi. Shu – 1920-1922 yillarda Qashqa vohasida qizil istibdodga qarshi yalov ko‘targan qo‘rboshilardan Tangri Berdi dadho, Eshqul dadho, Doniyorbek, Ibrohimbek, Avliyoqulbek, Bozorbek, Mavlonbek, Mullo Abdurahmonbek, Mullo Juma Qoravulbegi, Juma Qoravulbegi, Gul oqsoqol (Koson tumani ijroqo‘mi raisi), Eshonqul Tursun (dehqon), Bahrom boyvachcha, Mullo Abduroziq, Mullo Abdusattor To‘raboy, Mullo Muhammad To‘raboy, Mullo Muhammad Ali, Ochilbek, Xoliqulbek, Bahrombek, Xo‘jamqul, Qodir polvon va boshqalarning har qaysisi qo‘l ostida 50 dan 400-500 tagacha jigit bo‘lgan.

Milliy ozodlik kuchlari 1922 yilning mart oyida Buxoroni olish uchun hujum boshlaydi. Qizil armiya va militsiya juda katta talofat ko‘radi. 8-martga kelib, ahvol ular uchun yanada og‘irlashadi. Qamalni qattiq ushlagan ozodlik kuchlariga Buxoro yon-atroflaridagi qishloqlardan ko‘ngillilar yordamga kela boshlaydi. Butun boshli qishloqlar ular tomoniga o‘tib har taraflama yordam ko‘rsatadilar.

Qishloqlar aholisining sovetlarga qarshi kurashayotgan qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlashi, ular safini to‘ldirish, ot-ulov, oziq-ovqat, qurol-yarog‘, kiyim-kechak, yem-xashak va moddiy tomonidan ta‘minlashi yashirin qoladigan ishlar sirasidan emasdi. Shu bois, sovet davrida yozilgan kitoblarda bu haqda, batafsil bo‘lmasa-da, harqalay, yo‘l-yo‘lakay aytilgan fikrlar uchraydi. Ozodlik kuchlari bilan sovet hokimiyati armiya qismlari o‘rtasida vujudga kelgan to‘qnashuv maydonlari - Shahrisabz va Kitob aholisi aksilinqilobiy kuchlar tarafida bo‘lganligi e‘tirof etiladi. 1920 yilning 29 dekabrda Buxoro xalq sovet respublikasi nozirlar

kengashining raisi Fayzulla Xo'jaev zudlik bilan Shahrisabzga jo'natiladi. Nozirlar kengashi raisiga va u bilan birga kelgan 15 siyosiy xodimga aholini bu yo'ldan qaytarish uchun favqulodda vakolatlar beriladi.

1922 yilning 2-yanvarida Buxoro komfirqasi markaziy qo'mitasi, xalq nozirlari kengashi va butun Buxoro markaziy ijroiya qo'mitasi kengashi favqulodda hay'atlar tashkil etib, ularga diktatorlik huquqini beradi. "diktatorlik hay'ati"– zo'raonlik hay'ati Sharqiy Buxoro bilan bir qatorda, sovetlarga qarshi kurash xavfli tus ola boshlagan Qarshi va Shahrisabz viloyatlarida ham joriy etiladi. Milliy ozodlik harakatining bu davrdagi yorqin g'alabalaridan biri shu bo'ladiki, Sharqiy Buxoroda amirlik tuzumi qayta tiklanadi. Bu g'alaba janub kuchlariga ham katta ruh, shijoat bag'ishlaydi. Qashqa vohasining quyi qismida aksilinqilobiy kurash yanada jonlanadi, ayrim tumanlar, qishloqlar ozodlik kuchlari tomonidan egallab olinadi. Sovet hokimiyati katta yo'qotishlar evaziga bu joylarni qayta egallaydi.

Sovet hokimiyati vaziyat qaltislasha borayotganidan qattiq xavfga tushib, ozodlik kuchlariga qarshi kurash olib borayotgan qizil armiya qismlari, militsiya, BSB, ko'ngilli militsiya guruhlarini qatoriga shoshilinch ravishda Rossiya hududidan qo'shimcha harbiy kuchlarni keltirishga majbur bo'ladi. Xususan, Buxoroga 1922 yilning bahorida Tambov shahridan o'qchilar brigadasi, otliq askarlar polki, Vladimir shahridan 17-o'qchi diviziyaning maxsus polki olib kelinadi. Bulardan tashqari RSFSRning boshqa okruglaridan ham armiya qismlari va turli harbiy bo'linmalari yordamga jalb etiladi.

1923 yilning yozi va kuzi davomida Qashqa vohasida to'plangan sovet harbiy qismlari – 4-, 10-, 12-o'qchi polklar, otliq askarlar, Rossiyadan yordamga kelgan qizil qo'shinlar hammasi birgalikda qarshilik harakatini so'ndirish uchun keng ko'lamli hujum olib boradi. Ayrim manbalarda 1923 yilning oxirlariga kelib, qattiq to'qnashuvlar, jangu jadallardan keyin Buxoro xalq sovet respublikasi hududida ozodlik kuchlarining 46 guruhi harakatda bo'lganligi aytiladi. Bu



guruhlarda 3342 jigit, 11 pulemyot bo‘lganligi ham qayd etiladi. Shu kuchlarning 1160 tasi va 6 pulemyoti<sup>1</sup>

Buxoro va Qashqadaryo hududlarida sovet hokimiyatiga qarshi turgan.

Bu raqamlar nisbiy bo‘lib, juda kamaytirilib ko‘rsatilgan. Bunda, ozodlik kuchlariga qarshi qo‘yilgan qizil armiyaning askarlari soni deyarli maxfiy tutiladi, ular soni ba'zi taxminlarga ko‘ra, Qashqa vohasining o‘zida 50 mingdan kam bo‘lmagan. “Bosmachilar” deb tahqirona nomlangan ozodlik kuchlari sonining kamaytirilishi siyosiy mohiyati shunda ediki, birinchidan, bu harakat uyushmagan, talonchilik maqsadidan bo‘lak siyosiy niyati bo‘lmagan kichik to‘dalardan iborat degan ishonchni tug‘dirishni, ikkinchidan, sovetlarga qarshi turganlar ko‘pchilikni tashkil etmagan degan tushunchani paydo qilishni ko‘zda tutar edi. Holbuki, dastlabki yillarda bir qadar markazlashgan boshqaruvga asoslangan qarshilik harakati mukammal qurollangan qizil armiya qismlari bilan bo‘lgan to‘qnashuvlarda ko‘p yo‘qotishlar berganiga qaramay, ular safi yangi-yangi kuchlar bilan to‘ldirilib borilgan. Sovetlar jang maydonlarida son va qurol jihatdan bir necha baravar ustun bo‘lsalarda, mag‘lubiyat alamini totadilar.

Ozodlik kuchlarini mag‘lub etishning harbiy jihati bilan bir qatorda iqtisodiy zarbaga, aholi o‘rtasida ularga qarshi tashviq-targ‘ibotni ko‘paytirishga ruju qiladilar. Eng avvalo, qarshilik harakatining ta‘minot vositalari tugatiladi – yirik boylar, amaldorlar, ruhoniylar mol-mulklari tortib olinadi, o‘zlari “bosmachilar”ning ko‘makchilari sifatida yo‘q qilinadi. Bu ozodlik kuchlariga jang maydonlarida berilgan zarbadan bir necha marta ortiq jarohat edi. Tashviq-targ‘ibotlardan yetgan zarar esa bundan beshbadtar og‘ir edi. Vaziyatdan foydalangan nokaslar, azaliy o‘g‘ri, kallakesarlar to‘da tuzib, qishloqlarni talaganligini inkor qilib bo‘lmaydi. Qashqa vohasi xalqi bunday talonchi to‘dalarni sovetlarga qarshi kurashayotgan kuchlardan farqlab, “cho‘nqaymalar” deb atagan. Qashqa vohasida harakat qilgan sovetlarga qarshi kuchlar 1926 yilga qadar mustabid tuzum o‘rnatilishiga qattiq xalaqit beradi, sovetlashtirish, yer-suv

---

<sup>1</sup> Aminova R. Kollektivlashtirish – qashshoqlashtirish demak. T., Sharq yulduzi. 1997 yil. 12-son.

islohoti, jamoalashtirish ishlari boshqa viloyatlarga nisbatan bir necha yilga kechikib ketadi.

Og‘ir tog‘- dala sharoitida janglar olib borish, muqim ta‘minot manbalaridan mahrum bo‘lish, qo‘shni sarhadlarda qarshilik harakatlariga chek qo‘yilishi, eng muhimi, sovet qo‘shinlarining haddan tashqari kuchaytirilishi oqibatida, 1926 yilga kelib, Qashqadaryodagi milliy ozodlik kurashi mag‘lubiyati yuz beradi. Mag‘lubiyatni tan olmagan bahodir qo‘rboshilar bo‘lgan. Ular chidab bo‘lmas qiyinchiliklarga, saflarning benihoya darajada siyraklashib, yonlarida 5-10 jigtlari qolganda ham, sovetlarga qarshi o‘qtalغان qurollarini tashlamaganlar. Bunday jasur, dovyurak kurashchilar 30-yillar tegrasida ham mavjud edi. “Aksilinqilobiy tashkilot” a‘zolari, avval boshdan, mustabid sovet hokimiyatiga qarshi kurashni maqsad qilib qo‘yganida, ozodlikka erishishni “umum ishimiz” deb, bu kurashning mohiyati va g‘oyasini aniq ifoda etgan edilar. Mustaqillikni ximoya qilish, ozodlikka erishish xalq intilishi, umum xohishi edi. Qo‘lga qurol olganlar Qashqadaryo elining, boyu bayonlarining har taraflama qo‘llab-quvvatlashi bilan maydonga chiqqan edilar. Elu xalq ma‘naviy va moddiy jihatdan quvvatlamaganda, vohada bu kurash 1920 yilning o‘zida, qurolli isyonlar bostirilgan vaqtda yana qaytib tiklanmagan bo‘lur edi. “Aksilinqilobiy tashkilot”ning asosiy yo‘lboshchilari o‘ldirilishi, ayrimlarining xorijga ketishga majbur bo‘lishi ham bu harakatning davom etishiga mone‘lik qila olmadi. 1924 yilda Nuriddin xoja Og‘oliqning qo‘lga olinishi va sud qilinmasdan, Buxoro xalq sovet respublikasi hukumati qarori bilan bozorjoyda, xalq oldida otib tashlanishi vatanparvar kuchlar bilan bir qatorda elu xalqning qahr-g‘azabi yanada oshishiga sabab bo‘ladi. Shu voqyeadan keyin “Aksilinqilobiy tashkilot”ning joylardagi jangovar kuchlari safiga ko‘ngillilar jigit bo‘lib kira boshlaydi. Yo‘qsa, 1924 yilda sovetlar o‘zlari tahqirlab “bosmachilar” deb nomlagan milliy ozodlik kuchlarini qisib olgan, unga barham berish arafasida turgan edi. Ozodlik kuchlarining yangi to‘lqini qizil armiya qismlarining yana ikki yil talofat ko‘rishiga, og‘ir janglar olib borishiga sabab bo‘ladi. Qizil armiya o‘sha davrda ham jahonning eng kuchli armiyalaridan biri hisoblanardi. U Kolchak, Denikin va boshqa sobiq rus imperiyasining yaxshi

qurollangan, professional harbiylardan – oq generallar, zobitlar qo‘mondonlik qilgan armiya qismlarini ham yengishga muvaffaq bo‘lgan edi. Jang ko‘rgan, zamonaviy qurollarga ega bo‘lgan, harbiy va iqtisodiy ta‘minoti mo‘tadil, bardavom bo‘lgan ko‘p sonli qizil armiya qismlari – 4-, 10-, 12-o‘qchi va otliq polklarning, Rossiya hududidan olib kelingan qo‘shimcha harbiy kuchlarning 1925-1926 yillarga kelib, markazlashgan rahbarlikdan deyarli mahrum bo‘lgan, o‘z boshiga harakat qiladigan, parokanda bo‘lgan, saflari juda siyraklashgan qarshilik guruhlarini yengishi ham oson ko‘chmagan. Olti yillik harbiy, iqtisodiy, ma'naviy siquvlardan keyin sovet hokimiyati ozodlik kuchlari ustidan g‘alaba qilishga erishadi. Ammo, qarshilik harakatiga butunlay barham berishga muvaffaq bo‘la olmaydi. Chunki, norozilikning ildizi elning ichida edi. Elni yo‘q qilmay, norozilikni tugatish mumkin emasdi. Bu o‘zbek xalqining, turkiylarning qoniga singan azaliy, o‘lmas haqiqat edi. Iskandar Zulqarnayn bosqinida ham, arablar hurujida ham, mo‘g‘ullar yag‘mosida ham shunday bo‘lgan edi. Qashqadaryo Vatanning bir qismi sifatida, asrlar davomida bu yurtida shakllangan milliylik an'analariga sodiq edi.

Sovet hokimiyati hukm surgan yillarda Qashqa vohasida 20- 30-yillarda mustabid tuzumga qattiq xavf solgan, olti yil davomida qizil armiya qismlarini qiyratgan milliy ozodlik harakati va uning jangovar kuchlari to‘g‘risida deyarli gapirilmadi. Sovet mafkurasi, oldinda aytilganidek, qarshilik harakati Qo‘qonda, Turkiston muxtoriyati yakson etilganidan keyin, Farg‘ona vodiysida vujudga kelgan edi, degan g‘oyani singdirishga berildi. O‘zbekistonning boshqa hududlarida milliy ozodlik kurashlari bo‘lmaganligi, shubhasiz qizil saltanatning obro‘sigacha xizmat qilardi. Shu boisdan, o‘tgan asrning 60-yillari oxirlarida yozilgan, Buxoro va Qashqadaryo sovet hokimiyatining o‘rnatilishiga bag‘ishlangan tarixiy-ilmiiy kitoblarda “bosmachilik” -ning xalqchil negizi, milliy ozodlik ruhi mutlaqo yoritilmadi. Xalq qo‘zg‘olonlari xaspo‘shlab kelindi. Qashqa vohasida olti yil davom etgan qurolli kurashga, yo‘l-yo‘lakay, shunda ham, butunlay salbiy munosabat bildirildi.

O‘zbekistonning janubiy viloyatlari orasida Qashqadaryoda, uning Qarshi, Koson, Beshkent, Kasbi, G‘uzor, Tangiharam (Dehqonobod), Yakkabog‘, Chiroqchi, Shahrisabz, Kitob tumanlarida 1920-1926 yillarda kechgan milliy ozodlik kurashi o‘z siyosiy maqsadi, ko‘lami, erishgan natijalari bilan O‘zbekiston respublikasi tarixida salmoqli o‘rin tutadigan boblarni qamraydi. Mavzuning to hozirga qadar shu nuqtai nazardan o‘rganilmaganligi, Mustaqillik davrida yozilgan ayrim asarlarda ham bu xususda bir yoqlama xulosalar chiqarilishiga sabab bo‘lmay qolmadi. O‘zbekiston yangi tarixining Ikkinchi jildi – “O‘zbekiston sovet mustamlakachilari davrida” kitobida, jumladan, “1924 yilning oxiri va 1925 yilning boshlarida kelganda hozirgi Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlaridagi muxolifat kuchlari umuman mag‘lubiyatga uchradi”, degan xulosa aytiladi. Bu xildagi tarixiy voqyealik bilan bog‘lanmagan, fikr-mulohazalar manbalar bilan tanish bo‘lmaslik, ularni o‘rganish, istifoda qilmaslik tufaylidir.

Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyatidagi mavjud arxivlar jamg‘armalari sinchiklab o‘rganila boshlandi. Viloyat Davlat arxivi, viloyat hokimligi arxivi xazinalarida o‘tgan asrning 20- 30-yillariga oid minglab jildlar saqlanib kelinayotir. Bu yillar voqyeliqi sovet va firqa, jazo organlari (Bosh siyosiy boshqarma-GPU, IIXK – NKVD, prokuratura, sud, uchliklar) tomonidan yozilgan hisobotlar, qarorlar, ma'lumotlar, ro‘yxatlar va boshqa turli-tuman hujjatlarda o‘z ifodasini topadi. Davr voqyeliqi bir tomonlama – sovetlar faoliyati aosida baholangan va yoritilgan bo‘lishiga qaramay, ularga tarixiylik va tanqidiylik nuqtai ngazaridan yondoshilganda, XX asr birinchi choragining aniq manzarasini ifodalash mumkin bo‘ladi.

Arxivlar yig‘malari tarixiylik-xronologik jihatdan qaralganda, ko‘p uzilishlarga ega. Bu, bir tomonidan, davrning ruhi – bosqin siyosati, harbiy vaziyat bilan izohlansa, ya'ni hujjatlar izchil yuritilmaganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, bevosita sovetlarga qarshi harakatga aloqadar yozishmalarning ataylab yo‘q qilinishiga borib taqaladi.

Markaziy arxiv va harbiy shtab talabi, shubhasiz, kechiktirilmasdan ado etilgan. Bosh boshqaruvchi xatida aniq va ochiq ko‘rsatilganidek,

Qashqadaryoda 1920 yil avgusti - sentyabridan buyon joylashgan, milliy ozodlik kuchlariga, sovetlarga teskari munosabatda bo'lgan aholiga – sobiq amir amaldorlari, boylar va ruhoniylarga qarshi kurashib kelgan qizil armiya qismlarining qirg'in, zo'ravonlik, talonchiliklarini ifoda etadigan hujjatlarni yo'q qilishda Qarshi va Shahrisabz bilan bog'liq qismga alohida e'tibor ko'zda tutilgan. Maxfiy hujjatlar 1926 yilning oxirlarida yo'q qilingan. 1926 yilning kuziga kelib, vohadagi eng so'nggi ozodlik kurashchisi, taniqli qo'rboshi mullo Abduroziq Xo'jandiev taslim bo'lgan va otilgan edi. Undan sal oldinroq Tangri Berdi dodho ham qurolni tashlagan va oliy jazoga hukm etilgan edi. O'rta Osiyo Harbiy okrugi maxfiy hujjatlarni yoqib yuborish qaroriga kelganda, Qashqadaryoda sovet hokimiyati dushmanlari batamom mag'lub etildi va uning tarixini yo'q qilish masalasiga bira-to'la nuqta qo'yish lozim deb o'ylagan edi. Ko'rilajak chora xalq tarixining bir qismini – milliy ozodlik kurashi sahifalarini yer yuzidan supirib yuborishni, kelajak avlodlarni qahramonona o'tmishdan, tarixiy xotiradan mahrum etishni ko'zda tutardi. Shunga vaqtincha muvaffaq bo'lindi ham. 1920-1926 yillar davomida qizil armiyaning necha minglab yurtdoshlarimizni beayov qirganligi, qishloqlarda olib borgan talon-taroji, xotin-qizlarga tajovuzi, boyliklarni o'marib ketganligi haqida umumiy gaplardan bo'lak, biror aniq dalillarni bilmasdan keldik.

Bosqinchilik, mustabidlik, zo'ravonlik, olovda yoqishlar bilan xalq tarixini yo'qotib bo'lmas ekan. Armiyaning qirg'inga doir maxfiy hujjatlari yo'q qilinganiga qaramay, o'sha davr sovet, firqa va bo'lak jazo organlariga taalluqli ishlarda qizil qo'shinning qonli qiyofasini tiklash mumkin bo'lgan dalillar, baribir, saqlanib qolgan. Qolaversa, harbiy qismlarning faoliyat doirasi, vakolat miqyosi shunchalik ulkan bo'lganki, 1926 yilning oxirlarida ularga oid bo'lgan barcha "mutlaqo maxfiy", "maxfiy" hujjatlarning hammasi ham yondirilib ulgurilmagan. U yoki bu sabab bilan qog'ozlarning bir qismi bizga qadar yetib kelgan. Masalan, "bosmachilar" bilan kurashayotgan, ularni izma-iz ta'qib qilayotgan qizil armiyaning kundalik ma'lumotlari (razvedka) markazga – siyosiy va harbiy boshliqlarga yuborilgani singari, ularning nusxalari viloyat firqa qo'mitalariga ham taqdim etilgan. Mahalliy organlar bilan hisoblashmaslik iloji bo'lmagan.

Qo‘shimcha kuch, oziq-ovqat, yem-xashak, joylashuv masalasida hamkorlikka ehtiyoj katta edi. Shu boisdan viloyat darajasida “Bosmachilik kengashi” tuziladi, tezkor tahlil joylarda jangovar faoliyat olib borayotgan ozodlik kuchlariga zarba berishda juda qo‘l kelgan. Al-hosil, 20-yillarga tegishli bo‘lgan minglab jildlardan sochilgan tariq donalarini tergandek, Qashqadaryo vohasida amalga oshgan milliy ozodlik kurashi sahifalarini birqadar tiklash mumkin bo‘ldi.

XX asrning 20-30-yillarida sovet mustabidligiga qarshi vujudga kelgan milliy ozodlik kurashi tarixi ulkan mavzudir. O‘zbekiston Respublikasi tarixshunoslik ilmida, mustaqillik tufayli, sovet mustamlakachiligining yovuz tabiati, qirg‘in va talonchilik xususiyati, milliy o‘lkalarda olib borgan qatag‘onlari va kamsitish, qullikka solish siyosati keng miqyosda yoritildi va yoritilmoqda. Qashqadaryo vohasi O‘zbekistonning janubiy ma'volaridan biri sifatida sovet hokimiyatining barcha qabohatlarini boshdan kechirdi. Vatan boshiga nimaiki tushgan bo‘lsa, Qashqadaryo undan chetda qolmadi. Sovetlar tajovuzi, o‘rnatgan istibdodi, muttasal qatag‘oni yurtning barcha sarhadlarida bo‘lgani kabi, Qashqadaryoda ham benihoya darajada og‘ir kechdi. Aholi sonida katta yo‘qotishlar bo‘ldi, qishloq xo‘jaligi, madaniyatda chuqur tanazzullar hukm surdi.

## **1.2. Qashqadaryo vohasi, uning asosiy shahar va qishloqlarining Qizil Armiya tomonidan tobe etilishi**

Qashqadaryo viloyati 1924 yilning 1 oktabrida sobiq Buxoro xalq sovet respublikasining Behbudiy, G‘uzor va Shahrisabz uездlari asosida dastlab okrug sifatida tashkil etilgan edi. Qashqadaryo viloyati ijroiya qo‘mitasining 1924–1925 yil hisobotida ko‘rsatilishicha, o‘tgan davr ichida viloyatda "sovet hokimiyatini tashkil etish uchun qulay sharoit" bo‘lmagan.

1920 yilning 7 sentabrida, seshanbadan chorshanbaga – qurbon hayiti kuniga o‘tar kechasi sovetlarga qarshi Qarshida, 24 dekabrda Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ va Chiroqchida boshlangan qurolli kurash Qizil Armiya tomonidan bostiriladi. "Aksilinqilobiy tashkilot" mag‘lubiyatdan keyin to‘xtab qolmasdan, sovetlarga qarshi kurash usulini o‘zgartiradi.

Aniqrog‘i, sho‘roning qizil armiya qismlariga monand alohida harakat qiladigan qurolli guruhlar tuziladi. Bolsheviklar mafkurasi qasoskorlarni – ozodlik kurashchilarini "bosmachilar" deb ataydi. Sovetlarni ag‘darishga, amirlikni qayta tiklashga qaratilgan qarshilik harakati Amir Sayid Muhammad Olimxon – Buxoroning so‘nggi hukmdori yurtidan xorijga, Afg‘onistonga ketgandan so‘ng, sho‘rolar butun Turkistonga egalik qilgandan keyin ham uzoq, to 30–yillarga qadar davom etadi.

Vatanparvar kuchlar o‘z oldilariga yurtni qizil istibdoddan qutqarishni asosiy maqsad qilib oladilar. Amir Sayid Muhammad Olimxonning taxtni ololmasligi aniq bo‘lib qolgandan (Ibrohimbek, Anvar posho mag‘lubiyatidan) so‘ng ham bu kurash bir lahza tinmaydi. Sovetlarga qarshi olib borilgan kurashni Amir Sayid Muhammad Olimxonni taxtga tiklash bilan bog‘lab qo‘yish, shu jihatdan bir yoqlama, uning ozodlik ruhini bilib, bilmaslikka olishga qaratilgan qarashlar natijasidir. 1921–1922–yillarga kelib, bu harakat milliy ozodlik kurashi darajasiga ko‘tariladi. Bu yillarda O‘zbekistonning barcha hududlarida sho‘ro istibdodiga, zo‘ravon tuzum o‘rnatilishiga qarshi kurash keng yoyilib, ommaviy tus oladi.

Viloyat ijroiya qo'mitasining 1924–1925–yilga doir rasmiy hisobotidan xo'jaliklarning qoloqahvolda bo'lishi bosh sababi, avvalo, bosmachilikka, keyin tabiiy ofatlarga taqalganligini anglash qiyin emas. Qashqadaryo viloyat Davlat arxivining 83–jamg'armasi, 1–ro'yxati, 12–ishida bu hisobot 22 betni tashkil etadi. Ishning 17–betidan boshlangan, sohalar bo'yicha alohida mavzularga ajratilgan hisobot ancha salmoqli. Dastlab bosmachilik haqida so'z yuritilib, undan keyin "qurg'oqchilik" tahlil etiladi. Shu yili Behbudiy, G'uzor, Chiroqchi, Yakkabog' va Shahrisabz dalalarida hosil bitmagan. Zikr etilgan hududlarda lalmikor ekin butunlay nobud bo'lgan, sug'oriladigan yerlarda esa 80 foiz hosil nobud bo'lgan. Behbudiy uezdida, masalan, hosildorlik bir tanobga 6–9 botmondan (bir tonnadan sal oshiq) to'g'ri kelgan.

Hisobotda mavzular bo'yicha "sovet apparatining tashkil etilmasligi" uchinchi o'rinda keladi. "Viloyat tashkil etilishi davrida, – deyiladi unda, – sovet apparati 90 foiz darajasida mavjud emas edi. Ayniqsa, quyi apparatda ahvol og'ir edi: qishloq sho'rolari rolini aminlar va oqsoqollar, ko'pincha yuzaga kelgan vaziyatdan imkon darajasida foydalanib qolishga intilgan sobiqbeklarning qarindosh–urug'lari, ular tomonidan qo'yilgan kishilar bajarar edi.

Aholining yoppasiga savodsizligi sababli, kerakli xodimlarni izlab topishda qiyinchiliklarga duch kelindi. Behbudiy va G'uzor shahrining vayrona holda ekanligi, og'ir tabiiy iqlim, past miqdordagi maosh – bular bari boshqa tumanlardan bo'lgan xodimlarni ishga jalb eta olmas edi, tajribali xodimlarni topish deyarli mumkin emasdi".

Viloyat tuzilgan davrda byudjet taqchilligi faoliyatning asosiy kishanlaridan biri edi. Mazkur hujjatda ta'kidlanishicha, 1924–1925 yillarda zaruriy mablag'ning yetishmasligi ko'zda tutilgan tadbirlarning amalga oshmay qolishiga, ish haqini vaqtida bera olmaslikka olib kelgan. Bu esa xodimlar qo'nimsizligiga ham sabab bo'lgan.

Tashkiliy davrda aloqaning yo'lga qo'yilishi ahamiyati katta edi. Viloyat bilan markaz va boshqa hududlar aloqasi bu davrda telegraf va pochta vositasi shaklida muayyan edi. Shunda ham, hisobotda qayd etilishicha, respublika poytaxti



Samarqand bilan pochta almashuv Kogon–Qarshi–G‘uzor aloqa vagonlari bilan bog‘liq bo‘lib, u haftada 3 marta amalga oshar edi. 1925 yilning 15 martiga qadar Shahrisabzga pochta vagonlarining borishi tasodifiy bo‘lib, u vagonni tirkash imkoniyati bo‘lgan hollardagina bu aloqa yo‘lga qo‘yilgan. Faqatgina yilning oxirlariga kelib, ahvol biroz o‘nglanadi. Telegraf stansiyalari shahardan olisda bo‘lishiga qaramay, aloqa bo‘limlari bilan bog‘lanadi, Samarqanddan pochta har kuni keladigan bo‘ladi. Shunda ham, Shahrisabz va G‘uzor bilan aloqa tartibi haftada 3 kunligicha qoladi.

Qashqadaryo viloyat maqomini olganidan so‘ng, sovetlar ahamiyatni qaratgan eng zarur muammo sho‘ro boshqaruv apparatini shakllantirish bo‘lgan. Tashkiliy–ma‘muriy ishlar yuzasidan 1924–25–yillar davomida viloyat ijroiya qo‘mitasining 2 ta plenumi va 68 ta yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi. Bularda shtatlar, byudjet masalalari bilan bir qatorda, viloyat hududining ma‘muriy bo‘linishi loyihasi ham ko‘rib chiqiladi. Ijroiya qo‘mita, "bosmachilikdan jabr ko‘rgan qishloqlarga yordam ko‘rsatish"ni ham kun tartibiga qo‘yadi. Lekin, asosiy diqqat–e‘tibor soliq, saylov va ekish kampaniyalarini "yuksak darajada" o‘tkazishga qaratiladi. Buning uchun viloyat ijroiya qo‘mitasi prezidiumi a‘zolari ham joylarga mas‘ul qilinib, safarbar etiladi, keng qamrovda targ‘ibotlar olib boriladi.

Hisobotda, sho‘ro xizmatchilari tarkibini oshirishda mablag‘ yetishmasligi ta‘kidlansa–da, bunday taqchillik militsionerlar sonini muttasil oshirib borishga xalaqit bermaydi. Jumladan, shu davrda militsiya tarkibi 137 nafardan 184 nafarga, davlat hisobidan ta‘minlanadigan ko‘ngilli militsionerlar soni esa 245 kishiga oshiriladi.

Qarshi shahrida 24–yilning boshida 33 nafar militsioner bo‘lgan bo‘lsa, yil oxirida ular soni 97 nafarga ko‘paytiriladi, ko‘ngillilari esa yana 20 nafarga orttiriladi. Shahrisabzda bu ko‘rsatkich yil boshidagi 53 nafardan 61 nafarga yetkaziladi. Ayni vaqtda jinoyat qidiruv organi xodimlari soni 14 nafardan 37 nafarga oshiriladi. Shunga qaramay, viloyatda talonchilik, qurolli bosqin, o‘ldirish, zo‘rlash, o‘g‘irlik, qurol–yarog‘ saqlash, amalni suiiste‘mol qilish jinoyatlari

darajasi baland bo'lgan. Sodir etilgan 711 jinoyatdan 203 tasini ochish mumkin bo'lgan.

20–yillar birinchi yarmida viloyat boshqaruvida Yer bo'limi muassasasi bo'lgani holda, agrouchastkalar soni nihoyatda oz edi. Faqatgina Behbudiy, Koson, G'uzor va Shahrisabzda, jami 4 ta agrouchastka mavjud edi. Bu esa, sovetlarning qishloqxo'jaligi sohasida aytarli ahamiyatga molik mavqega ega emasligini ko'rsatar edi.

Agrouchastkalar yerni ishlashning ilg'or usullarini namoyish etishi, dehqonlar ishlov berish, ekish, qishloqxo'jalik texnikasi va hokazolardan foydalanishni undan o'rganishi ko'zda tutilar edi. Agrouchastkalarga tanlangan rahbarlarning mahalliy yer, suv, iqlim sharoitini bilmasligi oqibatida, namuna ko'rsatish, oxir–oqibatda natijasizlik bilan xotima topadi. Agrouchastkalarda 1926 yil so'nnglariga kelib, qishloqxo'jalik texnikasi bilan ta'minlanish yo'lga qo'yila boshlanadi. 1925 yilda viloyat bo'yicha 11 ta traktor mavjud edi. Bu traktorlardan 3 tasi Behbudiy uezdiga, 2 tasi Kosonga, 2 tasi G'uzorga va 4 tasi Shahrisabzga ajratilgan edi.

Shu yillarda viloyatda chigirtka ofati juda zo'rayib ketadi. Unga qarshi kurashda Zarafshon OZRA byurosi mutaxassisleri yordamga keladi. 1924 yilda Behbudiy uezdida 2880 tanob yerni chigirtka bosgan bo'lib, umuman, bu ofat uezdning jami 5000 tanob paykalidagi hosilni nobud qilgan edi. G'uzorda bu ko'rsatkich 1500 tanobga yetar edi. Viloyat, ayni vaqtda, chorvachilik o'lkasi ham hisoblanardi. Qashqadaryoda bu davrda 4 ta veterinariya uchastkasi (Behbudiy, Koson, G'uzor, Shahrisabz) tashkil etilgan bo'lib, ular Yer bo'limi ixtiyorida edi.

Qashqadaryoda XX asrning 30- yillarida ijtimoiy masalalardan biri nafaqaxo'rlarga bo'lgan munosabat hisoblangan. 1932 yilning 28 avgustida Sovetlar MIQning “Qizil qo'shinga chaqirilgan askarlar oilalarini ta'minlash to'g'risida”gi qarorining qabul qilinganligi diqqatga sazavor, ammo bu qarorning bajarilishiga e'tibor mutlaqo bo'lmagan. Avvalo, bu qaror haqida aholi hech narsa bilmagan, uning ijro etilishini tegishli mahkamalar nazorat qilmagan. Masalan, G'uzor, Chiroqchi, Koson, kabi rayonlarda qizil askarlar oilalari va nogironlarga

oziq-ovqat va nafaqalar mutlaqo berilmagan. Bu rayonlarda ajratilgan nafaqalar o'z egalariga topshirilmagan edi. Chiroqchi rayonida 1932 yil uchun 11000 so'm mablag' aholiga berilmagan. Shaxrisabzda – 14638 so'm, G'uzorda – 8400 so'm, Kosonda – 5071 so'm mablag' ijtimoiy xazinada ishlatilmay yopib qo'yilgan<sup>1</sup>.

Respublika sovetlari MIQning 1935 yil may oyidagi "Ijtimoiy ta'minot organlarining ishi to'g'risida" va O'zSSR XKSning 1936 yil 7 mayda "O'zbekiston SSRda ijtimoiy ta'minot ishini qayta qurish to'g'risida" kabi bir qator hujjatlarda respublikada ijtimoiy ta'minot organlari ishida yutuqlar qo'lga kiritilganligi bilan birgalikda, uning faoliyatidagi qo'pol nuqsonlar tahlil qilinadi.

Bu mahkamalar faoliyatida Qashqadaryo viloyatining barcha shaharlari va rayonlarida mavjud bo'lgan illat nafaqaxo'rlar haqida hisob-kitobning ma'lum emasligi oqibatida, ajratilgan mablag'larning o'z egalariga topshirilmaganligi qattiq tanqid qilinadi. Ijtimoiy ta'minot idoralarida ishlaydigan xodimlar birinchi navbatda o'z sohalarining mutaxassisleri emas, ularning asosiy ko'pchiligi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'laligicha tushunib yetmagan kishilar edi. Buning ustiga, aholini nafaqa bilan ta'minlash haqidagi qonun, farmon va ko'rsatmalar o'zbek tilida o'z vaqtida bu mahkamalarga yetib kelmas, oqibatda nafaqalarni rasmiylashtirish qoidalari qo'pol suratda buzilgan.

Qashqadaryoning Shaxrisabz va boshqa rayonlarida ijtimoiy ta'minot idoralari o'z ishini bilmaydigan malakasiz va mas'uliyatsiz xodimlar bilan to'ldirilgan, shuningdek, bu idoralar butunlay noqulay ish sharoitlarida faoliyat ko'rsatgan. Bu idoralar vayrona binolarda, saroylarda va eski hovlilarda joylashgan bo'lib, qishda xonalar isitilmas, ishlash uchun oddiy stol, stul kabi jihozlar yo'q edi.

Qashqadaryo qishloqlarida uy-joy masalasi qanday bo'lganligi 30-yillarda partiya, sovet mahkamalarining amaliy e'tiborida bo'lmagan.

Viloyat qishloqlarida aholining qanday yashaganligini 1933 yil, 8-noyabrda ilg'or kolxozchilarning Butun o'zbek anjumanida O'zbekiston K(b)P MQ ning kotibi Akmal Ikromov chiroyli qilib tasvirlab bergan edi: «Surxondaryo,

---

<sup>1</sup> Ravshanova G., Ravshanov P. Moziy sabog'i (tadqiqot). Toshkent, Yangi asr avlodi, 2009.

Qashqadaryo, Zarafshon, Xorazmdagi ahvolga qarang. SHERoboddagi Paxtakor, Yangi yo‘l, To‘ra Hojiyev kolxozlari a‘zolari hisobida 5000 so‘m pul bor.

Ular qora o‘tovda olov yoqib o‘tirishadi. Bu qanday turmush? Yaqinda men Zarafshonga bordim, Kolxoz a‘zolari butun bir oila bilan bitta xonada yashaydi, o‘sha xonada ularning buzog‘i ham yashaydi. Shu xonada ovqat pishirishadi, shu xonada iste‘mol qilishadi, shu xonada choy qaynatib ichishadi». Qishloq xalqining 30-yillardagi turmush tarzi haqida ma‘lumot beradigan bundan ham ishonchliroq dalilni topib bo‘lmasa kerak.

O‘rganilayotgan davrda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash eng murakkab muammolardan biri edi, shuning uchun bu masala butun 30-yillarda respublika hukumati va joylardagi mahalliy boshqaruv tashkilotlarining e‘tiborida edi, ammo, boshqaruv kishanlangan tizimdan iborat bo‘lib qolgandi.

1930 yilning 14 iyunidagi Qashqadaryo okrug Sovetlari Ijroiya Qo‘mitasi Rayosati o‘z yig‘ilishida «Aholini go‘sht bilan ta‘minlash to‘g‘risida» qaror qabul qildi, qarorga ko‘ra okrug hududidan yirik va kichik mollarni chiqarish ta‘qiqlandi. Qarshi stansiyasi, paxta zavodlari va Kitob stansiyasi ishchilariga go‘sht me‘yori 200 gramm qilib belgilandi, umuman shahar aholisiga jon boshiga 100 grammdan go‘sht tarqatishga qaror qilindi. Aholini go‘sht bilan ta‘minlash respublikaning boshqa shaharlarida ham xuddi shunday ahvolda edi.

Aholini go‘sht bilan ta‘minlashdagi bu og‘ir ahvol 30-yillarda aholining molu mulkini umumlashtirish orqali majburiy tortib olish siyosatining oqibati bo‘lib, molini, qo‘y-qo‘zisini jamoa xo‘jaligiga topshirishni istamagan dehqon xo‘jaliklari o‘zlarining mollarini, qo‘y-qo‘zilarini yashirib saqlab yoki haydab boshqa viloyatlarga o‘tkazib yuborib, so‘yib sotib yuborgan edilarki, bu holat o‘nglab bo‘lmas vaziyatni vujudga keltirgan. Bu borada qabul qilingan hukumat qarorlarining birida aholiga go‘sht mahsulotini me‘yor bilan sotishga ko‘rsatma berilgan bo‘lsa, ikkinchisida mol go‘shti savdosini umuman ta‘qiqlar edi.

Bozor munosabatlari va xususiy-savdo amalda totalitar hukumronlik sharoitlarida siqib, chekkaga surib qo‘yilgan, sotsialistik rejalashtirish bozor munosabatlarini tiklash va uni takomillashtirishga yo‘l bermasdi.

O‘zSSR XKSning 1936 yilning 2 yanvaridagi qarori esa “Qand bilan savdo qilishning ahvoli to‘g‘risi”da bo‘lib, unda respublikaning qator viloyatlari qatorida Qashqadaryo viloyatining ba‘zi rayonlari aholisi hayotiy zarur mahsulotlar bilan mutlaqo ta‘min etilmaganligi ta‘kidlanib, tanqid qilingan edi.

Qashqadaryo aholisini lampa yog‘i-kerosin bilan ta‘minlash ham juda yomon ahvolda bo‘lgan. Viloyatning ba‘zi rayonlari uchun umuman kerosin fondi ajratilmadi. Aholini kerosin bilan ta‘minlash ham savdo tashkilotlari zimmasidagi vazifa bo‘lib, ko‘p hollarda qishloq aholisi uchun ajratilgan fondlar qirqib tashlangan.

Ijtimoiy sohaning ajralmas qismi hisoblangan ta‘lim sohasidagi ahvol ham tadqiq etilayotgan davrda talab darajasida emas edi.

1928 yilning 28 avgustida Ittifoq hukumatining barcha tipdagi maktablar o‘qituvchilari va maorif xodimlarining ish haqiga qo‘shimchalar qo‘shib berish to‘g‘risidagi qarori O‘zbekistonda 1935 yilda ham joriy etilmagan edi.

Oradan 7 yil o‘tgach respublika hukumati 1936 yil 15 maydagi o‘zining maxsus qarori bilan maktab o‘qituvchilari va boshqa xodimlarining ish haqini oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘lar ajratilganligini e‘lon qildi. Buning ustiga qishloq o‘qituvchilarini uy-joy bilan ta‘minlash masalasi ham o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘yilgan, ular ijtimoiy himoyadan chetda edilar.

Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz, Kitob kabi va boshqa rayonlarida maktab binolari va jihozlarining yo‘qligi natijasida o‘quvchilar 2 (smena) mahalda yerda o‘tirib o‘qitilardi, sinf xonalari to‘shalmagan edi.

Maktab qurilishini jadallashtirish borasida 1937 yilning 5 avgustida O‘z.SSR XKS va O‘z KP /b/ MKning respublikada «Maktab qurilishi to‘g‘risida»gi qarori ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekistonda shu davrda yangi maktab binolari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari va oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv binolari, yotoqxonalar qurildi. Ammo, respublika hukumatining bu qarorida ham maktab qurilishi mutlaqo qoniqarsiz ahvolda ekanligi ko‘rsatilgan edi. 1937 yilning 1 avgustiga qadar respublikaning

77 rayonida maktablar qurilishi 01 foizdan 60 foizgacha, 11 rayonida 60 foizdan ortiq bajarilgan.

Jumladan, Qashqadaryoning Dehqonobod rayonida – 9 foiz bajarilgan bo‘lib, qoniqarsiz ahvolda edi. Viloyatning barcha shahar va rayonlarida oldingi yillardan bitmay chala qolgan maktab, bolalar bog‘chalari va o‘quv yurtlari binolari mavjud edi. Bu chala qurilishlarni bitkazish uchun ba‘zan mablag‘ bo‘lmasa, ba‘zan qurilish materiali bo‘lmasdi.

Ushbu davrda maktabgacha ta‘lim muassasalarining ham ahvoli talab darajasida emasligini alohida qayd etish lozim.

1935 yilning 19 noyabrida O‘z.SSR XKS va Moliya Komissarligining «Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar ota-onalaridan olinadigan badallar to‘g‘risida»gi qaroridan keyin, serfarzand mahalliy millat vakillari o‘z bolalarini to‘lovlar miqdori qimmatlashganligi uchun bog‘cha va yasllarga yubormadilar.

Viloyat shahar va rayonlari xalq maorifi bo‘limlari bolalar bog‘cha-yasllari uchun ajratilgan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflab yuboradilar, Qashqadaryoda maktabgacha tarbiya muassasalarining umumiy ahvoli qoniqarsiz edi.

Mehnatkashlar turmush sharoitini yaxshilash, moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy himoya qilishning yo‘llaridan biri ijtimoiy iste‘mol jamg‘armalari hisobidan maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishdir. Respublika hukumati ayollar huquqini himoya qilish, ularni ijtimoiy hayotga jalb qilishda asosiy vosita, maktabgacha tarbiya muassasalarini rivojlantirishni o‘z zimmasiga olgan edi<sup>1</sup>.

O‘z.SSR XKS 1930 yilning 14 martida «O‘zbekiston SSRda maktabgacha tarbiya muassasalariga madaniy yurishni tashkil qilish to‘g‘risida»gi masalani muhokama qildi va qaror qabul qildi.

Bu madaniy yurishning maqsadi shaharda ishchi va xizmatchilarning, yoppasiga jamoalashtirilgan xo‘jaliklarda esa kambag‘al dehqonlarning bolalarini maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb qilish, maktabgacha tarbiya

---

<sup>1</sup> Ziyoyev X. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. T.: “O‘zbekiston”, 2000. 14 bet.

muassasalarining haqiqiy ahvoli bilan tanishish, shunday muassasalarni tuzishdan va uning ishini yo'lga qo'yishdan iborat. Bunday muassasalar shahar va qishloqlarda juda oz bo'lib, tarbiya muassasalari uchun tarbiyachilarni tayorlash kurslari ham, bu kurslarni tashkil qilish uchun mablag' yetishmasdi. Sovet hokimiyati Qashqadaryoda 1921 yildan buyon davom etib kelayotgan, tuzumga katta xavf tug'dira boshlagan milliy ozodlik kurashini barbod etish uchun 1926 yilga kelib, hamma imkoniyatlarini safarbar etadi. Qizil armiya qismlari viloyat hududidagi asosiy shaharlar va qishloqlarga doimiy ravishda joylashtirilgan edi. Qarshi tumanlararo hududida qizil armiyaning 13-o'qchi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va Chiroqchi tumanlarida 12-o'qchi korpuslari qismlari o'rnashgan edi. Bu yillarda «Qashqadaryoda, ayniqsa Qarshi stansiyasida, G'uzorda, Shahrisabz va Kitobda yirik harbiy qismlar va ularning shtablari joylashgan edi. Bu joylarda Qizil armiyaning bosmachilarga qarshi kurashuvchi orqa qanoti, qo'shinlar ta'minoti markazlari ham o'rnashgan edi. Qarshi, G'uzor va boshqa ba'zi bir tumanlar keng ko'lamlı jangovar operatsiyalar boshlangan joylar bo'lgan edi»<sup>1</sup>.

1924–1925 yillarda Qashqadaryoda milliy ozodlik kuchlarini bostirish uchun Buxoro guruh qo'shinlari, BSBning 13-o'qchi otliq korpusi, Turkiston otliq brigadasi 84-otliq polkining 8-bo'linmasi, Turkiston o'qchi polki, alohida otliq eskadron, 4-Turkiston o'qchi dviziyasi, alohida o'zbek o'qchi bataloni, alohida o'zbek otliq dviziyasi va alohida o'zbek otliq-tog' batareyalari jalb etiladi.

Qashqadaryo viloyat davlat arxivida ozodlik kurashchilarga qarshi janglar olib borgan sovet harbiy kuchlari haqida ham ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, arxivning 83-jamg'armasi, 1-ro'yxati, 96-ishida 4-Turkiston o'qchi dviziyasi komandiri Kuleshovning 1927 yil 25 mayda yozgan xati mavjud. 4-Turkiston o'qchi diviziyasining komandiri va harbiy komissari bo'lgan

---

<sup>1</sup> Ravshanova G. Qashqadaryoda milliy qarshilik harakati tarixidan. (1920-1930 yy.) Qarshi., "Nasaf", 2010.

Kuleshov Qashqadaryo viloyati ijroiya qo‘mitasiga, rahbarlardan Ro‘ziboyev va Azizovlar nomiga quyidagi mazmunda xat yo‘llaydi:

«4–Turkiston o‘qchi diviziyasining qismlari bir necha yillar davomida nihoyatda og‘ir sharoitlarda va moddiy qiyinchiliklarda bosmachi to‘dalariga qarshi qahramonona kurash olib bordi. Ular bu kurashni porloq g‘alaba bilan yakunladilar va viloyatni bosmachilardan to‘liq tozaladilar, bu bilan viloyatda tinch xo‘jalik, sovet va madaniy–siyosiy qurilishni muvaffaqatli taraqqiy etdirishga zamin hozirlandi. 4–Turkiston o‘qchi diviziyasi qismlari Qashqadaryo viloyati mehnatkashlari manfaati uchun o‘zining ko‘plab yaxshi o‘g‘lonlari jonini qurbon qildi, ular doimo ajralib turar va birinchi bo‘lar edi».

Turkiston otliq brigadasi 84–otliq polkining 8–bo‘linmasi komandiri o‘rinbosari N.I.Shopekning Qashqadaryo viloyati Shahrisabz uyezdi xalq sudiga 1927 yil 7 fevralda yozgan arizasini nusxasi mavjud. Unda jumladan, shunday deyiladi:

«1925 yilning avgustida Shahrisabzda joylashgan 84–otliq qism garnizonlari, 12–Turkiston o‘qchi polki va 4–Turkiston o‘qchi diviziyasining alohida otliq eskadronlari Shahrisabzda yashavchi fuqaro Muhammadi Bobojonov bilan oziq–ovqat, yem–xashak tayyorlab berish yuzasidan shartnoma tuzgan edilar...».

Yuqorida keltirilgan iqtiboslar sovet hokimiyatining Qashqadaryodagi milliy ozodlik kurashiga barham berish uchun nihoyatda katta kuchlar tashlaganini anglab yetish uchun kifoya qilarlikdir.

Amirlikni qulatib, to‘ntarish yo‘li bilan hokimiyatga kelgan bolsheviklar 1920–1925 yillar davomida rasman hukmronlikni qo‘lga olgan bo‘lsada, bu yillarda viloyatda sovet tuzumini o‘rnatishga, qishloqlarni «sovetlashtirish»ga to‘la ravishda muvaffaq bo‘la olmaydi. Qashqadaryo viloyat ijroiya qo‘mitasining 1924–1925 yil uchun qilingan hisobot ma‘ro‘zasida bu haqda ochiqdan–ochiq shunday xulosaga kelinadi:



«Buxoro xalq sovet respublikasining uchta sobiq viloyati (Behbudiy, Gʻuzor va Qarshi) asosida 1924 yilning 1 oktabrida avval okrug koʻrinishida tuzilgan Qashqadaryo viloyati sovet hokimiyatini tashkil etishda qulay sharoitga ega emas edi... Viloyatni tashkil etish vaqtida, unda sovet apparati 90 foiz yoʻq darajada edi. Ahvol ayniqsa quyi apparatda chatoq edi: qishloq shoʻrolari rolini aminlar, oqsoqollar, koʻpincha sobiq beklar tomonidan qoʻyilgan kishilar, hatto, ularning qarindosh–urugʻlari bajarar edi. Ular vujudga kelgan vaziyatdan imkon qadar foydalanishga intildilar».

1925–1926 yillar davomida sovet hokimiyati viloyatda «sovetlashtirish»ga–sovet tuzumini mustahkamlashga zoʻr beradi. Viloyat ijroiya qoʻmitasining 1925–1926 yil 3–kvartali uchun qilingan hisobotida bu haqda, «oʻtgan hisobot davri qashqadaryo viloyatida sovet apparatida va sovet qurilishini rasmona tashkil etish ishlarining davomi boʻldi», deyiladi.

Maʼmuriy boshqariluv jihatidan viloyat bu davrda Behbudiy (Qarshi), Gʻuzor va Shahrisabz uyezdlariga boʻlingan holda idora etilgan. Behbudiy uyezdi tarkibida 4, Gʻuzor uyezdida 4 ta va Shahrisabz uyezdida 5 ta volost boʻlgan. Hisobotda viloyat aholisi soni 200.000 ga yaqin, deb koʻrsatiladi.

1926 yilning 15–oktabrida boʻlgan 2–viloyat qurultoyi rezolyutsiyasida, «butun viloyatda bosmachilik barcha koʻrinishlari bilan toʻla tugatilganligini mamnuniyat bilan qayd etgan holda, bir tomondan talonchilikdan vayron boʻlgan dehqon xoʻjaligini tiklash, ikkinchi tarafdin, bosqinchilikning qayta paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik asosiy maqsad boʻlish kerak», deyiladi. Qurultoyda aholi oʻrtasida sovet hokimiyati mohiyatini teran tushuntirishda barcha kuch va imkoniyatlarni ishga solish, «bosmachilar» taʼsirida boʻlgan hududlarda bu ishni faol olib borish kerakli taʼkidlanadi. Qurultoy, «Qashqadaryoda sovet qurilishini tashkil etish davri endigina taraqqiy qila boshlaganini, sovetlarga qarshi boʻlgan yot unsurlar, boylar, oqsoqollar, amir

amaldorlari bilan zararlangan quyi sovet apparatini sog'lomlashtirish» yo'lida qator tadbirlarni belgilaydi<sup>1</sup>.

Sovet hokimiyatini mustahkamlashda «tuzumning afzalligini» aholi o'rtasida targ'ib va tashviq qilishga juda katta ahamiyat qaratiladi. Maxsus sovet hay'atlari tuzilib, tumanlarda tushuntirish ishlari olib boriladi. 1926 yilda Koson tumanining 36 qishlog'ida 55 ta miting va 45 ta suhbat o'tkaziladi. Bu yig'ilishlarga 10 ming kishi jalb etiladi. Shu yili 3 uyezd, 13 volost, 3 shahar va 50 qishloq sho'rolarining saylovlari o'tkaziladi. Saylovlarda 41189 kishi qatnashadi, ularning 671 tasi xotin-qizlar edi. Butun viloyatda sovet apparati xodimlari 70 foizga yangilanadi. Agar 1924–1925 yillarda Qashqadaryo hududida sovet apparatining 90 foizini sobiq amir amaldorlari, aminlar, boylar-ag'darilgan amirlik tuzumi tarafdorlari egallab turganligini hisobga olsak, sovetlar viloyatni idora qilish bobida ham 1926 yilga kelib g'alabaga erishganligini tan olishga to'g'ri keladi.

Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borayotgan kuchlarga, ularni qo'llab-quvvatlab turgan kishilarga, «bosmachi»larning qarindosh-urug'lariga qarshi 1925 yildan boshlab kuchaytirilgan hujum viloyatda qamoqqa olinganlar sonining keskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. 1924–1925 yillarda Qashqadaryo hududida 4 ta ozodlikdan mahrum etish joylari-qamoqxonlar mavjud bo'lgan. Behbudiy shahrida 1 ta ahloq tuzatish uyi, Behbudiy, G'uzor va Shahrisabzda bittadan, jami 3 ta mahbusxona (Ardom-arestantskiy dom) bor edi.

«Bosmachi»larga yordam berishda gumon qilingan, ularga qarindosh-urug' bo'lgan yuzlab begunoh kishilar qamab tashlangan. Viloyat qamoqxonalari 1925–1926 yillarda mahbuslarni sig'dira olmay qoladi. Shu sababli, 1925 yilning 12 iyulida Qashqadaryo viloyat ijroiya qo'mitasining prezidiumi yig'ilishi o'zining 50-qarorini qabul qilib, «keyingi vaqtda jinoiy unsurlarga nisbatan jazo tadbirlarining kuchaytirilishi va buning oqibatida

---

<sup>1</sup> Ravshanova G. Qashqadaryoda milliy qarshilik harakati tarixidan. (1920-1930 yy.) Qarshi., "Nasaf", 2010.

mahbuslar uyi va ahloq tuzatish uylarida qamalib yotganlar sonining ko‘payib ketganligi munosabati bilan Xalq komissarlari kengashidan shtatdan oshiq mahbuslarni saqlash uchun qo‘shimcha mablag‘ so‘ralsin», deyish darajasiga boradi.

Sovet hokimiyati 1926 yil oxirlariga kelib, Qashqadaryo viloyatini idora etish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni kuchaytira boshlaydi. Bunda, asosan, ma‘muriy boshqaruvga e‘tibor qaratiladi. Viloyat ijroiya qo‘mitasining 1926 yil 1–oktabridan to 1927 yil 1–oktabriga qadar bo‘lgan faoliyati haqidagi hisobotda viloyatda amalga oshirilgan tumanlashtirish natijalari o‘z aksini topadi: «viloyat o‘rniga okrug, uyezdlar o‘rniga tumanlar va hududi kengaytirilgan, tumanga tenglashtirilgan volostlar tuzildi. Qishloq sho‘rolari soni tumanlashtirishga qadar bo‘lgan davrdan bir necha baravar oshirildi. Tumanlashtirish natijasida avvalda mavjud bo‘lgan 3 uyezd o‘rniga 13 volost va uning 49 qishloq sho‘rosi, 8 tuman va uning 169 qishloq sho‘rosi vujudga keldi», deyiladi.

Qashqadaryo viloyat ijroiya qo‘mitasi 1926 yilda qabul qilgan qarorlardan, hisobotlardan bu hududda bosmachilik «barcha ko‘rinishlari» bilan butunlay, tag–tomiriga qadar tugatilganligi aniq bo‘ladi. Sovet hokimiyatining milliy ozodlik kuchlari ustidan to‘liq g‘alabaga erishildi, deyishiga qaramay, mustabid tuzumga qarshi kurashga butunlay barham berish amalda mumkin emas edi. To‘g‘ri, sovetlarga qarshi qurolli kurash olib boradigan alohida, muntazam harakatlanuvi kuchlarga barham beriladi, qurboshilar jang maydonlarida o‘ldiriladi, qolgan jigitlar qo‘lga olinadi va jazolanadi. Taslim bo‘lganlar, avf so‘raganlar kechirilmaydi. Lekin, bu bilan kurash to‘htab qolmadi. Sovetlarga qarshi harakatlar, qo‘poruvchilik ishlari davom etdi. Mag‘lubiyatdan keyin kurashning shakli o‘zgaradi. Yangi tuzumni qabul qila olmagan toifalarga mansub vatanparvarlar oz sonli bo‘lib, yashirin holda harakat qilish usulini tanlaganlar.

Sovet hokimiyati 1927 yilda ham bosqinchilik muammosiga qayta–qayta duch keladi. 1927 yilning 28 noyabrida Qashqadaryo viloyat ijroiya qo‘mitasi

prezidiumi yig'ilishida, «kuchayib borayotgan bosqinchilik tumanlarda otliq militsiya tarkibining qisqartilishi bilan bog'liq ekanligi ko'rinib turibdi», deb tan olinadi. Yig'ilish qarorida, «3 otliq militsionerga ega bo'lgan tuman militsiyasi bosqinchilar bilan kurashishda ojiz, bosqinchilar jazosini olmayotgani kabi, tumanlarda sovet ishiga halal berishdek qabih ishlarini davom ettirmoqdalar va yaqin orada Kitob, Shahrisabz va Tangixaram tumanlarida qishloq xo'jaligi solig'ini yig'ish ishlarini yo'qqa chiqarish xavfini solib turibdi», deyiladi.

Sovet hokimiyati «bosmachi»lar tugatildi degan qarorga kelganidan so'ng juda katta mablag' sarflanayotgan qizil armiya qismlarining asosiy qismini viloyat hududidan olib chiqib ketgan edi. Shu bilan baravar, militsiya bo'limlaridagi bosmachilikka qarshi kurashuvchi ko'ngillilar guruhi, otliq bo'linmalar ham son jihatdan kamaytirilgandi. 4–Turkiston o'qchi dviziyasi Samarqandda joylashtirilgan edi. Harbiy kuch muvozanatidagi o'zgarishlar sovet hokimiyatiga qarshi qurolni og'ir, yashirin kurash davrida ham tashlamagan ozodlik fidoiylari e'tiboridan chetda qolmagan edi. Ular mustabid tuzumga qarshi nafaqat qo'poruvchilik, to'sqinlik qilish, balki tashviqotlar yurgizish orqali ham kurashni davom ettirganlar.

Qashqadaryo okrugi ijroiya qo'mitasining 1927 yil 5–dekabrda bo'lib o'tgan 4–plenumida, «Boylar, mullolar va johil unsurlarning faol qarshilik ko'rsatishlari, mullolarning masjidlardagi targ'ibotlari kuzatilmoqda», deya ta'kidlanishi besabab emas, albatta.

Viloyatda «Aksilinqilobiy tashkilot» va uning ozodlik kuchlariga qarshi kurashib kelgan BSB ham 1927 yilda vatanparvarlar «jonlanishidan» xavotirga tushib qolgan edi. Bosh siyosiy boshqarmaning Qashqadaryo viloyat bo'limi boshlig'i Solovyov 1927 yilning 24–avgustida Nazar Amin o'g'li, Anna amin Safar o'g'li, Sharof Imom o'g'li, Hazratqulov, mullo Bo'ri Boboqulov, Qodir Obid o'g'li kabi «bosmachilar»ga faol yordam ko'rsatgan shaxslar bosqinchilikning qayta jonlanishida katta ta'sirga ega ekanliklarini, ularga

nisbatan murosasiz bo'lish kerakligini talab qiladi. «Bosmachilik» aybi bilan qamalib yotganlar juda ko'p edi. Ixtiyoriy taslim bo'lganlar ham kechirilmagan edi. Yuqorida zikr etilgan 2–viloyat qurultoyi (1926 yil, 15 oktabr) rezolyutsiyasida, «bosmachilikda qatnashganlarning, ularga yordam berganlarning hammasini aniqlash va ularni maxsus hisobga olish» qat'iy qilib qo'yilgan edi. Qamoqqa olingan Juma qurboshi Xudoybergan o'g'li 1928 yil 11 dekabrda otishga hukm etiladi.

Sovetlarga muntazam kurash tugatilgandan keyin ham, hokimiyat tuzum dushmanlariga nisbatan qanchalik shafqatsiz chor–tadbirlar ko'rmasin, minglab sobiq ozodlik kurashchilarini qamoqlarda saqlamasin, ularning boshliqlari va faollarini otuvga hukm qilmasin, qarshilik kurashi davom etadi. Bu kurash 1921–1926 yillarda ochiq qurolli janglar shaklida bo'lgan bo'lsa, 1926 yil oxirlaridan boshlab u yashirin ko'rinishda davom etadi. 1929 yilning 4–fevralida Behbudiy shahar kengashining navbatdan tashqari prezidiumi yig'ilishi bo'ladi. Yig'ilishda, «qishloqlarda bosmachilar bosqini tez–tez sodir bo'layotganligi», alohida qayd etiladi. Yana militsionerlar sonini ko'paytirish kun tartibiga qo'yiladi. Shu yil yig'ilishdan ko'p o'tmay, 1929 yilning 14–martida Qashqadaryo viloyat firqa qo'mitasiga komsomol a'zolari Soli Mahmudov va Burhon Rahmonovlardan ariza tushadi.

Mustabid tuzumga qarshi bo'lgan kuchlar kurashning joylardagi mahalliy hokimiyatga nisbatan qo'llanadigan ko'rinishiga ham murojaat etadilar. Sovetlarning faollari terror qilinadi, uylari yondiriladi, mol–mulki talanadi. Qashqadaryo okrugi mahalliy sovetlarning 2–syezdida (1929 yil, 10 aprel) bu haqda, «sinfiy dushman so'nggi paytda terrorni kuchaytirmoqda», deb e'tirof etiladi.

Ayniqsa, zo'ravonlik bilan o'tkazilgan jamoalashtirish butun respublikada qattiq noroziliklarga sabab bo'ladi. Bu mavzu alohida qamravga ega bo'lganligi sababli, bu haqda to'htalib o'tirmasdan, shu haqdagi bir e'tirofni keltirish bilan cheklanamiz. Respublika Markaziy ijroiya qo'mitasi 1930 yil 24 martda

«jamoalashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish haqidagi okrug, tuman va qishloq ijroiya qo‘mitalariga» 9/3427–raqamli qarorni yo‘llaydi. «Zudlik bilan» belgisi qo‘yilgan ushbu qarorda, «birqancha joylarda boy–quloq unsurlar tomonidan jamoalashtirishga qarshi dehqonlarning ommaviy chiqishlarini tashkil etishga erishildi», deyiladi. Bu esa, 30–yillarda ham sovet hokimiyatiga qarshi xalqning nafrati, hatto, oshkora qarshi chiqish harakatlari kuchli va faol bo‘lganligini ko‘rsatadi.

«Bosmachi», «bosmachilar to‘dasi» degan so‘zlarga 30–yillardagi rasmiy hujjatlarda ham duch kelamiz. Bu atamalar eslash, xotirlash yoki qoralash ma’nosida emas, to‘g‘ridan–to‘g‘ri mavjudlik, harakatdagi kuch sifatida zikr etiladi. 1930 yilning 23–fevralida Qashqadaryo viloyat jinoyat qidiruv bo‘limiga, BSB viloyat bo‘limiga va viloyat ijroiya qo‘mitasi nomiga «O‘zbeksavdo» Qashqadaryo viloyat bo‘limi boshlig‘i Kamolov, «O‘zbektorg»ning umumiy bo‘limi boshlig‘i Murakayevlar tomonidan yozilgan 558–raqamli xatda:

«Shu bugun Qamashi stansiyasidan quyidagi telegrammani oldik: Chim qishlog‘ida «O‘zbektorg» magazini 23–fevral kuni bosmachilar tomonidan talab ketilgan. Magazin mudiri Tyumenov», deyiladi.

1930 yilning 11–martida Qashqadaryo viloyati va Tangixaram tumani vakillari bilan Turkmanistonning qo‘shni Karkichi qishloq sho‘rosi, Charsha tumani xodimlari ishtirokida qo‘shma yig‘ilish bo‘lib o‘tadi. Mazkur yig‘ilishda ham, «to‘l mavsumi boshlanishi bilan tumanda bosmachi to‘dalari kuchaya boshladi», deyilib, har ikkala tomondan qo‘riqchilarni ko‘paytirishni so‘rash qayd etiladi.

1930 yil boshlariga taalluqli bo‘lgan keyingi bu ikki holni ozodlik kurashi aks-sadosi deyish qiyin. Bular shunchaki, «bosmachilik»ka qadar bo‘lgan va undan keyin ham davom etayotgan odatdagi talonchilik, o‘g‘rilik, bir yoki bir necha kishi nafs, shaxsiy manfaati bilan bog‘liq, mahalliy ahamiyatga molik oddiy tajovuzlar edi, xalos.

Sovetlarga qarshi kurash, shu tariqa, 1926 yildan keyin, «bosmachilik» tugatildi deb hisoblangan soʻng dala–togʻlardan, muntazam, ochiq qurolli urush shaklidan viloyat qishloqlariga, yashirin jabhaga koʻchadi. Yashirin tus olgan kurash endi sovetlar boshlagan adolatsiz islohotlarga qarshi qaratildi. Qashqadaryoda 1927–1929 yillar davomida oʻtkazilgan yer–suv islohoti, jamoalashtirish qishloqdagi tag–tubli, asosiy toifalardan boʻlgan mulkdorlarni, zamindorlarni sinf sifatida tugatish siyosatining amalga oshirilishi boʻlgan edi. «Quloqlashtirish» misli bosmachilikka qarshi kurash singari shafqatsiz va uzoq davom etgan kurash boʻldi<sup>1</sup>. Bu, shubhasiz, alohida mavzu. Muhimi, mustabid tuzumga, sovetlarga qarshi kurash butun Oʻzbekiston hududlarida boʻlgani kabi, Qashqadaryoda ham turli koʻrinishlarda davom etgan va bu ruh sovet hokimiyatining oxirgi kunlariga qadar saqlanib qolgan edi.

---

<sup>1</sup> Oʻzbekistonning yangi tarixi. K.1. Turkiston Chor mustamlakachiligi davrida. T., 2000. 24-bet.

### **1.3. Vohada milliy tashkilotlarning paydo bo'lish omillari, harakatlantiruvchi kuchlari va siyosiy maqsadi**

Turkiston Chor Rossiyasining 130 yilga yaqin davom etgan mustamlakachilik zulmidan qattiq ezilgan edi. Buxoro xonligi Chor Rossiyasiga vassal tariqasida–yarim tobe' bo'lgan holda hukm surib kelgan, to'la mustamlakaga aylanish xavfi XX asr boshlariga kelib kuchaygan, siquvlar har sohada ortib borayotgandi. 1917 yildagi Fevral va Oktabr inqiloblari yuz bermaganda, Chor Rossiyasi o'zining ko'pdan beri o'ylagan maqsadini–Buxoro xonligini bosib olish rejasini amalga oshirgan bo'lar edi. Romanovlar saltanatini zo'ravonlik bilan tugatib, hokimiyatga to'ntarish yo'li bilan kelgan bolsheviklar o'zlari qo'lga olgan hududlarda davom etib kelgan mustamlakachilikka barham bera olmadilar, taraqqiyot uchun demokratik yo'lni tanlamadilar, nomlar, siyosiy istilohlar o'zgardi–yu, sovet hokimiyati mustamlakachilikda, zo'ravonlikda, inson huquqlarini poymol etishda Chor Rossiyasining merosxo'riga aylandi, zulmda, istibdodda undan bir necha karra o'tib tushdi.

Xalqimizning mustabidlarga qarshi kurash tajribasi bor edi. 1916 yilgi Chor istilochilari mustamlakachilik zulmiga qarshi ko'tarilgan ommaviy qo'zg'olon saboqlari unutilgan emasdi. Sovetlar hokimiyatga kelgandan so'ng, mahalliy aholiga nisbatan olib borilgan tahqirli siyosat, talon–taroj, zo'ravonlik haqli ravishda qarshilik tuyg'usini uyg'otgan omil bo'lgan edi.

Mustaqillik davri tarixshunosligi xalqimizning yaqin kechmishidagi o'ta og'ir fojea–sovet hokimiyati istibdodiga, yangi mustamlakachilik asoratiga, ozodlik uchun olib borilgan kurashning milliy yo'nalishiga haqqoniy ilmiy baho berishga muvaffaq bo'ldi. Muhimi, XX asrning 20–yillarida sovetlarga qarshi olib borilgan kurashning asosiy kuch manbai o'zbek xalqi bo'lganligi dalolat etib berildi. Shu sababli ham, bu kurash uzoq davom etadi, uni bartaraf etish mustabid tuzumga oson kechmaydi. Milliy ozodlik kurashi bobida diqqatga loyiq ilmiy xulosalardan yana biri, «bu kurashga siyosiy yetakchilik, umumiy rahbarlik, harbiy, iqtisodiy ta'minot yetarli darajada bo'lmasa–da, uning ma'naviy va



jismoniy kuch manbi xalq bo'lganligi, ya'ni xalq tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib turilganligi bu kurashlar kuchlar teng bo'lmagan sharoitlarda ham uzoq vaqtgacha yengilmay turishi ta'minlab berganligi» ni sobit etishda ko'zga tashlanadi.

Milliy ozodlik kurashi vujudga kelgan, butun Turkistonni sovetlarni ag'darib tashlashga qaratilgan harakat alangasi cho'lg'ab olgan yillarda vatanparvar, ornomusli, haqiqatgo'y insonlar, davlat arboblari «bosmachilik» deb tahqirona nomlangan qarshilik kuchlariga hayrihoh bo'lganligi, uning paydo bo'lishi tub sabablarini ochib berishgi intilganligi ham keng ko'lamda yoritildi. 1923 yil 9–12 iyunda Moskvada RKP Markaziy qo'mitasining milliy respublikalar va viloyatlarning mas'ul xodimlari bilan o'tkazilgan to'rtinchi kengashida so'zga chiqqan Turkiston milliy faollaridan bo'lgan I.Xidiraliyev, qo'lga qurol olib, sovetlarga qarshi kurashayotgan har bir bosmachi o'zini milliy ozodlik himoyachisi deb hisoblab ish tutayotganligini qayd etib o'tgan edi. O'ta maxfiy tamg'asi qo'yilgan bu hujjatlar Vatanimiz mustaqilligi tufayli afkor omma nazariga havola etildi<sup>1</sup>.

Hokimiyatga davlat to'ntarishi yo'li bilan kelgan bolsheviklar o'ziga qarshi bo'lgan, bosh ko'targan har qanday kuchni mahv etishga, shafqatsizlikka zo'r beradi. Avval boshdan ommaviy qirg'inga mukkadan ketgan, talonchilikni kasb qilib olgan sho'ro amaliyotchilari milliy o'lkalarda tinch aholini ham ayab o'tirmagan. 1919 yilning oxirlariga kelib Turkistonda vaziyat nihoyatda keskinlashib ketadi. Markaz vakillari bilan mahalliy rahbarlar o'rtasida ixtiloflar avj oladi. Mahalliy rahbarlar o'z xalqining milliy, siyosiy huquqlarining tan olinishini, sovet hokimiyatiga qarshi kurashayotgan aholi bilan tinch munozaralar olib borishni, bolsheviklar bilan qizil armiyaning zo'ravonlik harakatlarini to'htatishni talab qiladilar.

Turkkomissiya boshlig'i M.V.Frunze, talablarning aksi o'laroq, 1920 yil 15–mayda, «bosmachilar bilan har qanday muzokaralarni tugatib, harbiy harakatlarni kuchaytirish» haqida shunday buyruq beradi: «Buyuraman... bosmachi to'dalarga

---

<sup>1</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.: "Sharq", 1998. 48-bet.

kirgan barcha kishilar xalq dushmani va tanlonchi deb hisoblansin va turgan joyida otib tashlansin. Bosmachilarga yordam bergan yoki aloqada bo'lgan shaxslar va jamiyat harbiy holatning eng shafqatsiz choralariga mahkum etilsin».

M.V.Frunze buyrug'i asosida yalpi terror avjga chiqadi, sovetlarga qarshi qo'lga qurol olgan kishilarning qarindosh–urug'larini qamoqqa olish, jazolash, qarshilik ko'rsatgan qishloqlar aholisini qirib tashlash odatdagi holga aylanadi. Vatanparvarlarga qarshi tazyiq, qattol siyosat qanchalik kuchli, ko'lamli bo'lmasin, sovetlar ularni uzoq yillar yengish, yo'q qilish epidan chiqa olmadi. Mahalliy rahbarlardan biri N.To'raqulov 1921 yilda, «bosmachilarga... qarshi shafqatsiz kurash e'lon qildingiz, aholidan bosmachilarni sotishni, tutib berishni talab etdingiz, qo'shnlarga buyruqni bajarmagan qishloqlarni yo'q qilishni buyurdingiz. Qishloqlar yakson qilindi, aholi talandi, ayrim to'dalar tarqatildi. Xo'sh, nima bo'ldi? Bosmachilik tugatildimi? Mutloqa yo'q. Hammaga ma'lumki, partizanlik urushida g'alaba nayza kuchi bilan emas, aholining u yoki bu tarafga munosabati bilan ta'minlanadi», degan fikrni bildiradi.

Sovetlar hokimiyat tepasiga kelgach, Turkistonda amalda bo'lib kelgan ma'muriy idora tizimiga barham beriladi, bekliklar, amlodkorliklar tugatiladi. Respublika viloyatlar, tumanlar, kentlar va qishloqlarga bo'linadi. Inqilobiy qo'mita (revkom) boshqaradigan 15 ta viloyat tuziladi. Shundan Qashqadaryoda Qarshi, G'uzor va Shahrisabz viloyatlari qaror topadi.

Qashqa vohasida mustabid tuzumga qarshi tashkiliy yo'sundagi harakat, Bosh siyosiy boshqarmaning viloyat bo'limi mas'ul xodimi Yepifanov ta'kidlaganidek, 1919–1920 yillarda vujudga keladi. Sovetlarning 1918 yilda Turkiston xalq komissarlari sovetining raisi F.I.Kolesov boshchiligida Buxoroda barbod bo'lgan hujumidan keyin amirlik o'z hududlarida harbiy xushyorlikni kuchaytirgan, aks choralar ko'rishga majbur bo'lgan edi. Qarshi hokimi Tog'aybek bevosita amir Sayid Olimxon roziligi asosida «Yosh buxoroliklar» yo'lini qo'llab–quvvatlayotgan «Yosh qarshiliklar»ni oradan ko'tarish maqsadida ko'ngillilar guruhini tuzadi. Tog'aybek va uning noibi Nuriddin xoja Og'oliq tomonidan tashkil etilgan, 1919 yilda amirlik tuzumiga xavf solayotgan «Yosh qarshiliklar» –

mahalliy jadidlarga qarshi ruhda bo'lgan bu ko'ngillilar guruhi biror–bir harakat qilganligi ma'lum emas. Yepifanovning tergov–surishtiruv ishlarini boshlash uchun yozgan siyosiy ayblovdan iborat «Sharh»ida 1920 yil sentabri boshlariga kelib bu guruhning «Aksilinqilobiy tashkilot» darajasiga ko'tarilganligi qayd etiladi.

Amir Sayid Olimxon 1920 yil sentabr oyining boshlarida, Qarshida sovetlarga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tarilishidan 3–4 kun oldin 400–500 kishilik qurollangan lashkari bilan Surxondaryo vohasiga tomon yo'l oladi. Amir Sayid Olimxon 1920 yilning 10–sentabrida<sup>2</sup> o'z guruhi bilan Boysunga yetib keladi. Boysun va SHERobod aholisi amirni qo'llab–quvvatlaydi. Tez orada uning atrofida olti ming<sup>3</sup> kishilik ko'ngilli qo'shin jam bo'ladi.

Amir huzurida to'plangan lashkarlarni sobiq qushbegi Nizomiddin xoji Devonbegi bilan sobiq G'uzor begi Bo'ri to'qsobalar boshqaradi. 1920 yilning dekabr oyiga kelib, amir 7 ming kishilik qo'shinga, 30 ta to'pga, 500 tuyalik o'q–dori zahirasiga ega edi. Taxtdan qulatilgan amirning tez orada bu qadar kuchayishi, elu ulus tomonidan qo'llab–quvvatlanishi sobiq bekliklarda ham aks sado bermay qolmaydi. Qashqadaryo va Supxondaryo shahar va qishloqlarida 1920 yil sentabr oyi boshlarida qurolli isyonning qizil armiya tomonidan qonga botirilishi, shahar aholisi uy–joylarining bir boshdan tintuv etilishi, qurol saqlagan kishilarning otib tashlanishi tushkunlik, qo'rquv va vahimalarga sabab bo'lgan edi. Shahrisabzdagi sovetlarga qarshi ko'tarilish ham aslida Qarshi g'alayoni bilan bir vaqtda bo'lishi mo'ljallangan edi. Kitob, Yakkabog', Chiroqchida bu ishda ikkilanish yuzaga chiqib, qurolli hujum kechikib ketadi. Nihoyat, amir Olimxonning Boysunda mustahakamlanishi Qashqa vohasining yuqori hududlarida sovetlarga qarshi ochiq qurolli kurashni ro'yobga chiqarishda o'ziga xos turtki bo'ladi<sup>1</sup>.

Shahrisabzda sovetlarni ag'darib tashlashga qaratilgan isyon 1920 yil 24–dekabrda, seshanbadan chorshanbaga o'tar kuni boshlanadi. Kitob, Yakkabog' va Chiroqchidan ko'ngilli qo'shinlar ko'plab yig'iladi. Sovetlarga qarshi miltiq,

---

<sup>1</sup> Ravshanova G. Qashqadaryoda milliy qarshilik harakati tarixidan. Toshkent., 2010. 29-bet.

qilich, nayza, shuningdek, panshaxa, bel va ketmon bilan qurollangan ko'ngillilar soni 15 mingdan oshib ketadi.

Sovetlarga qarshi qurolli hujumni boshlagan ko'ngillilar lashkarlari butun hududda sovet hokimiyatining hukm surishiga bir necha kun davomida barham beradi. Qizil armiya garnizoni yakson etiladi. Xalq ko'chalarga chiqib, xaloskorlarni olqishlaydi. Lekin g'alaba uzoqqa cho'zilmaydi. Shahrisabzda vujudga kelgan vaziyat Buxoro komfirqasi Markaziy qo'mitasini va Buxoro inqilobiy qo'mitasini larzaga soladi. 1920 yilning 29–dekabrida BXSR xalq nozirlari kengashi raisi Fayzulla Xo'jayev tezlik bilan Shahrisabzga jo'natiladi. Uning yonida yana yordamga yuborilgan 15 ta arbob ham bor edi. Respublika bosh noziriga, shubhasiz, aksilinqilobchilarga qarshi chora ko'rishda cheklanmagan vakolatlar berilgan, shu jumladan, qizil askarlar ham keragicha jalb etilgan edi.

Shahrisabzda bo'lib o'tgan qurolli isyon haqida sovet tarixshunosligida, uning bo'lgan vaqti va 15 mingga yaqin ko'ngilli qatnashganligi eslatib o'tiladi:

«1920 yil 24 dekabrda amirning josuslari Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchida aksilinqilobiy g'alayon ko'tarishga, bu tumanlarda majburiy safarbarlikni amalga oshirishga, 1920 yil oxirlarida lashkarlar sonini o'n besh mingga qadar yetkazishga muvaffaq bo'ladilar».

«Aksilinqilobiy tashkilot» Qarshi va Shahrisabz, Boycunda o'zining kuchli ikki qanotiga ega edi. Shahrisabz qanoti haqida ma'lumotlar juda kam. Shahrisabz aksilinqilobchilari ham Bosh siyosiy boshqarmaning viloyat bo'limi tomonidan ta'qib etilgan va ularning tirik qolganlari, xuddi Qarshi tashkilotida bo'lgani kabi, 1926 yilning mart oyidan boshlab qo'lga olingan, qamoqlarga tashlangan, hukm etilgan.

Shahrisabzda sovetlarga qarshi amalga oshirilgan qurolli qo'zg'olon haqida uning ishtirokchisi, «Aksilinqilobiy tashkilot»ning faollaridan biri bo'lgan Abdul Hofizxo'ja Fayozxo'ja o'g'li yozgan bir arznoma orqali ma'lum tasavvurga ega bo'lish mumkin. 1926 yilning 25–marti kuni BSB Qashqadaryo viloyat bo'limi tomonidan hibsga olingan Abdul Hofizxo'ja Fayozxo'ja o'g'li oliy hukumat organlariga 1926 yil 8–iyulda ariza yozadi. Arizada Shahrisabz qurolli

qo'zg'oloniga taalluqli qimmatli dalillar zikr etiladi. Mazkur arznomada aks etgan tarixning qimmati bebaho. 73 yoshli mahbus Abdul Hofizxo'ja shunday dalolatlar keltiradi:

«1920 yilda ikkinchi inqilob sodir bo'ldi. Shaharning va qishloqlarning barcha aholisi bir bo'lib, Shahrisabzni egallab oldilar va «Amir yana 3–4 kundan keyin qaytib keladi», deb jar soldilar. Ularning boshida isyon tashkilotchilaridan bo'lgan bekning yaqin amaldorlari Oston qoravulbegi, Jamol jivachi va boshqalar turgan edi. Qurolli qo'zg'olon seshanbadan chorshanbaga o'tar kechasi boshlangan edi...”

Abdul Hofizxo'ja qo'zg'olonning bostirilishi, bunda qizil armiya qismlarining bemisl xunrezlik qilishi haqida ham muxtasar fikr bildirib, «sovetlar hokimiyatni qo'lga olganlaridan keyin ko'chalarda va qishloqlarda qirg'inni boshlab yubordi. Men qo'rquvga tushib, Afg'onistonga ketib qoldim», - deydi.

Shahrisabz isyonini shafqatsizlik bilan bostirgan sovetlar shahar va qishloqlarda talon–tarojga, qirg'inga zo'r beradi. Abdul Hofizxo'ja kabi ayrim tirik qolgan isyon boshliqlari Afg'onistonga o'tib, jon saqlaydilar. Uning ham uy–joyi, mol–holi talon–taroj etiladi. «Qochgan vaqtimda, – deydi Abdul Hofizxo'ja, – yuz botmon sholimni, shuncha zig'ir, kunjut, bug'doy va boshqa uy ashyolarimni talab ketganlar».

Sovetlar va uning eng qattol jazo organi BSB (GPU) aksilinqilobchilarni ta'qib qilishni, jazoga tortishni bir zum to'htatmagan. Abdul Hofizxo'janing arznomasida Shahrisabz «Aksilinqilobiy tashkilot»ining rahbarlaridan Oston qoravulbegi, Jamol jivachi, Sudur eshon Abduvoris o'g'li, Rajab amin, Umar amin ismi shariflari qayd etilishi diqqatga loyiq. Qarshida bo'lgani kabi, Shahrisabzda ham qurolli qo'zg'olon shahar begi rahnamoligida tayyorlangan va amalga oshirilgan.

«Aksilinqilobiy tashkilot»ning Shahrisabz qanoti, uning faollari va qo'zg'olon ishtirokchilari xususida ma'lumotlar jamlangan. Ushbu jild Bosh siyosiy boshqarmaning Qashqadaryo viloyat bo'limi bosmachilikka qarshi kurash sohasi xodimi Titovning «Aksilinqilobiy tashkilot» faollaridan Nazar Abduqodir

o'g'li, Boboxo'ja Muqimxo'ja o'g'li, Omonxo'ja Muqimxo'ja o'g'li «jinoiy ishi» yuzasidan yozgan «Sharhi» bilan boshlanadi.

«Sharh»da, «Nazarkal Abduqodirov—kenagas urug'idan chiqqan, o'z urug'i ichida o'rni yo'q, amirlik davrida kambag'al bo'lgan, obro'—e'tibori yo'q, lekin o'zini jazavali qilib ko'rsatadi, bosmachilik faoliyati tufayli aholiga ta'sir o'tkaza oladi, o'zbek, 28 yoshda», deyiladi.

Boboxo'ja Muqimxo'ja haqida, «xojalar avlodidan, — deb ko'rsatiladi «Sharh»da, — urug'i kenagas. Katta obro'—hurmatga ega, aholi o'rtasida ta'siri zo'r, eshon va ayni vaqtda, yirik boy. Amirlik davridan eshonlik qilib kelgan, Dodho (Tangri Berdi dodho—G.R.) bilan shaxsiy aloqasi bor, o'zbek, 40 yoshda».

Nazar Abduqodir o'g'li, Boboxo'ja Muqimxo'ja o'g'li va ular bilan birga bo'lgan Omonxo'ja, Valixo'ja, Alqarlar 1920 yilning 24—dekabrida sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan qurolli kurashning faol ishtirokchilari bo'lganlar. Titov o'z «Sharhi»da bu haqda, «So'ngi xalq isyonida Bobo eshon hokimiyat tomonidan qamoqqa olingan edi, Shahrisabzda o'tirgan (hibsda) edi. U qamoqxonadan qochishga muvaffaq bo'ladi»,— deb ko'rsatadi.

«Sharh»ning oxirida, «Bobo eshon 1920 yil inqilobida<sup>4</sup> uning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, hatto, «Yosh buxoroliklar» harakatini bostirishda Sudur eshon Abduvorisov bilan birgalikda 3 mingga qadar aholini to'plaganlar va ular bilan Shahrisabzga hujum uyushtirganlar, lekin, mag'lub bo'lganlar, shundan keyin birgalikda Afg'onistonga qochib ketganlar»,— degan xulosa beriladi.

Shahrisabz qurolli isyonining tashkilotchilari va rahbarlaridan yana biri—Sudur eshon Abduvoris o'g'lining ismi sharifi ma'lum bo'ldi. Sudur eshon va Boboxo'ja Shahrisabzning tevarak—atrof qishloqlaridan—Shakarteri, Noqi, Shiraman va Poycha kabi mavze'lardan 3 ming kishilik ko'ngillilarni 1920 yil 24—dekabrda sovetlarga qarshi kurashga boshlab kelganlar.

Shahrisabz qurolli isyoni o'sha vaqtda Buxoro xalq sovet respublikasi hukumatini qattiq xavotirga solgan. Hukumat raisidan tortib, uning o'n besh siyosiy xodimi 29—dekabr kuni Shahrisabzga yetib keladi. «Front oldi tumanlari—Shahrisabz va Kitob aholisi amir josuslarining aksilinqilobiy ta'siriga berilganligi

sababli, BKP MQ va Buxoro inqilobiy qo‘mitasining 1920 yil 29–dekabrdagi qaroriga asosan xalq nozirlari kengashi raisi F.Xo‘jayev Shahrisabzga jo‘natiladi. U mazkur tumanga 15 siyosiy xodim bilan birgalikda aksilinqilobchilarga qarshi kurashish uchun favqulodda vakolatlarga ega bo‘lgan holda yetib keladi». Qurolli kurash Samarqanddan qo‘shimcha ravishda chaqirilgan qizil armiya qismlari tomonidan shafqatsiz ravishda bostiriladi.

Qarshida 1920 yilning 7–12 sentabri, Shahrisabzda 24–30–dekabri kunlarida har birida 10–15 ming kishilik ko‘ngillilar qatnashgan sovet hokimiyatini ag‘darib tashlash uchun amalga oshirilgan qurolli kurash mag‘lubiyatga uchraydi. Ko‘p odami, kam quroli bo‘lgan, jang tajribasi yo‘q xalq ko‘ngillilarini urush ko‘rgan, to‘la qurollangan, professional mahoratga ega bo‘lgan qizil armiya va uning zobitlari tutday to‘kadi. Ikkala isyon ham qonga botiriladi, Qashqadaryoda sovet hokimiyati qayta tiklanadi. Qurolli qo‘zg‘olon bostirilganiga qaramay, vohada mustabid, qattol sovetlar tuzumiga qarshi kurash to‘htab qolmaydi. Bu kurash, BSB Qashqadaryo viloyat bo‘limi tergov guruhi rahbari Yepifanov ta’kidlaganidek, yangicha usulda, «qizil armiya qismlariga o‘hshash muntazam harakat qiladigan alohida guruhlardan iborat kuchlar vositasida davom ettiriladi. Sovetlarga qarshi kurashish uchun qo‘lga qurol olgan vatanparvarlar o‘zlarini «umum ishi»–ozodlik kurashiga bag‘ishlagan edilar.

## **II bob. Qashqadaryoda amalga oshirilgan qatag'onlik va uning oqibatlari**

### **2.1. Sovet hokimiyatining Qashqadaryoda muholifat kuchlar, dindorlar va ziyolilarga qarshi qatag'on siyosati**

«Aksilinqilobiy tashkilot» faollaridan bo'lgan Xo'janazar Inotullayev (Denov qishlog'idan, miroxur) va Mamasho Doniyorovlar (Qamashi qishlog'idan, miroxur) haqida guvohlik ko'rsatmasi bergan Haydar Yodgorov (Behbudiy uyezdi, Qamashi qishlog'i, 43 yosh) shunday deydi:

«1920 yilda Qarshida sho'ro hukumatiga va qizil armiyaga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga Nuriddin xoja Og'oliq, Ahrorbek va Tog'aybeklar boshchilik qilgan. Qizillar Qarshini egallay boshlagach, Qamashi (Kasbi tumani) qishlog'idan Mamasho Doniyorov, Denov (Qarshi tumani–G.R.) qishlog'idan Xo'janazar Inotullayevlar yordamga 500 ga yaqin kishini olib keladilar. Qizillar shaharni egallayotganda Mamasho Doniyorov va Xo'janazar Inotullayevlar eng oxirgi qonlari qolguncha kurashganlar. 4–5 kunlik qarshilik ko'rsatishdan so'ng ular uylariga qochishga majbur bo'lganlar»<sup>1</sup>.

Faollarning o'zlari ham ko'rsatmalarida qo'zg'olon Tog'aybek, Nuriddin xoja Og'oliq, Sharofboy Habibullayev, mufti Nusratullo xo'ja tomonidan tayyorlanganligini, ularning bevosita rahbar bo'lganlarini aytganlar. Masalan, Xoji Abdulaziz mullo Boqixo'jayev, «isyon boshlig'i Qarshi begi Tog'aybek bilan Sharofboy degan kishi bo'lgan. Sharofboy yonida 15–20 qurolli kishi to'plangan ekan. Men buni polk komandirining o'zidan, isyondan keyin uyimni tintuv qilish paytida eshitgan edim. G'alayondan so'ng Sharofboy Afg'onistonga qochib ketgan, hozirda ham o'sha yerda. Uning haqida noaniq ma'lumotlar bor, aytishlaricha, u vafot etgan emish», - degan fikrni aytadi.

«Aksilinqilobiy tashkilot» faollaridan biri, Qarshi shahrining shimoliy hududida joylashgan Qilich Qo'rg'oncha qishlog'idan bo'lgan miroxur Mirzo

---

<sup>1</sup> Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. 3 jild. T.: "Sharq", 2011. 32 b.



Navro‘z Po‘latov, «Aksilinqilobiy harakatda, sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olonda Sharofboy faol bo‘lganligini bilaman. U miroxur bo‘lib, ismi sharifi Habibullayev bo‘lsa kerak. U o‘z atrofiga 110–120 ga yaqin qurolli kishilarni to‘plagan edi. Sharofboy isyondan keyin 3–4 kun o‘tib, Afg‘onistonga qochib ketgan. Sharofboy Qarshi begiga qarindosh emas edi, lekin Tog‘aybek bilan juda yaqin aloqada bo‘lib, beklilik hokimiyatida taniqli kishi edi», mazmunidagi ko‘rsatmani beradi.

Qurolli isyon boshliqlari, uning yuqorida ismi shariflari tilga olingan faollari, ma‘lum bo‘ladiki, har biri alohida qurolli guruhlariga ega bo‘lganlar. Bu qurollangan ko‘ngillilar 15–20 tadan to 500 taga qadar bo‘lgan guruhlarini tashkil etgan. Shunga ko‘ra, 1920 yilning 7–sentabrida boshlanib, 12–13–sentabrga qadar davom etgan isyonda 5–7 ming atrofda qurolli g‘alanyochilar ishtirok etgan, deyish mumkin.

Yepifanovning «amir Sayid Olimxon Buxoroning sovetlar tomonidan istilo qilinishi paytida Qarshiga qochib kelgan», degan fikri ham «Aksilinqilobiy tashkilot» faollari ko‘rsatmalarida o‘z tasdig‘ini topadi. Qarshiga yaqin bo‘lgan Nikuz qishlog‘ida yashagan, qoravulbegi Erka amin Do‘stmurodov 1926 yil 15–aprelda bo‘lgan so‘roqda, «Buxoro amirligi istilosi paytida Amir Qarshiga qochib kelib, Tog‘aybekning hovlisiga tushgan edi. Qo‘zg‘olonga Sharofboy boshchilik qilgan edi, u Qarshida yashagan, boy kishi bo‘lgan»,<sup>2</sup> degan ko‘rsatmani beradi.

1920 yilning 7–12–sentabr kunlari Qarshi shahrida bo‘lib o‘tgan sovetlarga qarshi qurolli isyon haqida hozirga qadar ilmiy manbalarda biror so‘z uchramaydi. Chunki, «Sovet hukumatiga qarshi olib borilgan kurash voqealari haqidagi ijtimoiy–siyosiy qarashlarni tavsiflovchi manbalarning qolgan qismi oshkor etishga mo‘ljallanmay, ma‘lum vaziyat va aniq maqsadlarda bayon etilgan rasmiy hisobot, axborotlar bo‘lib, ular arxiv zaxiralarida saqlanib qolgan. Bu manbalarni ham, ya‘ni arxiv ma‘lumotlarini ham butunlay xolis qarashlar yoki ma‘lumotlar sifatida baholash noto‘g‘ri, chunki ularning aksariyati hukmron mustabid davlat vakillarining masalaga bir yoqlama g‘arazli yondoshuvining mahsuli bo‘lib, o‘ta

tanqidiy munosabatni va boshqa manbalar bilan qiyoslash asosida o'rganishni taqoza etadi».

Amir Sayid Olimxon Buxoroni tashlab chiqib, Qarshiga kelgach, bu vohada mustamlakachi sovetlarga qarshi ozodlik harakati shakllanadi. Bu xususda mustaqillikka qadar maxfiy saqlab kelingan arxiv jamg'armalarida tarixiy va ilmiy qimmatini nihoyatda katta bo'lgan ma'lumotlar mavjud ekanligi hayratomuzdir. Bu o'rinda Qashqadaryoda viloyat Davlat arxivining 172–jamg'armasi, 2–ro'yxati, 13 (20) ishi mundarijasi va mohiyati diqqatga loyiq. Mazkur jamg'arma Turkiston xalq komissarlari kengashi Markaziy ijroiya qo'mitasi huzurida 1917 yilda tuzilgan Bosh siyosiy boshqarmaning (GPU) viloyat bo'limi aksilinqilobchilarga amalga oshirgan jinoiy ish tafsilotlarini qamraydi. 1200 varaqli jinoiy ish Qashqadaryoda 1920–1926 yillarda sovetlarni ag'darib tashlash, vatan ozodligi uchun kurash olib borgan «Aksilinqilobiy tashkilot», uning faollari va a'zolarini jazolashga qaratilgan. 1926 yilning 20–martidan boshlangan 33–jinoiy ish ko'p yillik izga tushish, aniqlash, so'rab–surishtirishlar natijasida maydonga keladi.

«Aksilinqilobiy tashkilot»ning boshliqlari, bevosita isyonni tayyorlagan va amalga oshirgan vatanparvarlarning aksariyati qizil armiya qismlari bilan olib borilgan 4–5 kunlik janglar davomida halok bo'ladi. Sharofboy Habibullayev, mufti Nusratullaxo'ja kabi rahbarlar Afg'onstonga ketishga majbur bo'ladi. Nuriddin xoja Og'oliq, Mirzo Navro'z Po'latov, Erka amin Do'stmurodov, Mahmarayimbek va Abdurasulqulbek Abdusattarovlar, Xo'janazar Inotullayev, mullo Tojiddin Salimov, Xoji Abdulaziz mullo Boqixo'jayev, mullo Ne'mat Shodmonov, Muzaffarxo'ja Xotamxo'jayev, Ochil oqsoqol Soibov va boshqa faollar bir qancha vaqt yashirinib yurib, jon saqlaydilar.

Sovetlarga qarshi qurolli isyonni amalga oshirgan «Aksilinqilobiy tashkilot» faoliyatini siyosiy jihatdan sharhlagan BSB viloyat bo'limi tergov guruhi boshlig'i Yepifanov shunday xulosaga keladi:

«Sharqdagi inqilobiy voqea–hodisalarning umumiy yo'nalishi 1917 yildagi Ulug' Oktabr inqilobining aks–sadosi o'laroq, «Yosh buxoroliklar»ning inqilobiy harakati misolida xalqning ziyolilar qatlamini qamrab ola boshladi. «Yosh

buxoroliklar» asrlar davomida Sharq xalqlarini ezib kelgan amirlikka, uning zulmini amalga oshirib kelgan amaldorlarga, boylarga, ruhoniylar qarshi bordi. Bu keyingilar o'zlarini to'la huquqli idora etuvchilar hisoblab, jaholatda qolgan dehqonlar ommasini ayovsiz ishlatib, ular hisobidan yirik xo'jalik va ulkan boyliklarga ega bo'ldilar.

Amirlikning sadoqatli ayonlari Sharqda kuchaya borayotgan inqilobdan xavfga tushib qolgan edi. Inqilob oqimi o'zining butun shiddatini ezuvchilar tarafiga qaratib, eski aqidalarni yuvib keta boshladi. Mafkurasiga ko'ra ashaddiy monarxistlar bo'lgan amirlik himoyachilari Mirzo Navro'z Po'latov, Erka amin Do'stmurodov, Mahmarayim Abdusattorov, Abdurasulqulbek Abdusattorov, mullo Tojiddin Salimov, Xo'janazar Inotullayev, Hoji Abdulaziz mullo Boqixo'jayev va mullo Ne'mat Shodmonovlar 1919–1920 yillarda Qarshi begi Tog'aybek (hozirgi vaqtda Afg'onistonda) va Qarshi og'olig'i Nuriddin xoja (o'zining aksilinqilobiy faoliyati tufayli otilgan) rahbarligida Qarshi shahrida «Aksilinqilobiy tashkilot» tuzadilar. «Aksilinqilobiy tashkilot» a'zolari soni 70 taga yetadi. Mazkur tashkilot o'z oldiga sho'ro hokimiyatini ag'darib tashlashni yagona maqsad qilib qo'yadi va Afg'onistonga qochgan amirni taxtiga qaytarish harakatini boshlab yuboradi. Amirning imdodi bilan qirg'inga zo'r beriladi».

Yepifanov, qurolli isyon vaqtida, «amirning imdodi bilan o'sha paytda Qarshi shahrida yashayotgan ovrupoliklarga nisbatan milliy qutqu asosida qirg'inga zo'r beriladi. Oqibatda, 800 ga yaqin ovrupoliklar o'ldiriladi, qonli intiqomdan na ayollar, na bolalar chetda qolmagan»,- deb yozadi.

Bu keltirgan qirg'in dalilida, «mustabid davlat vakillarining masalaga bir yoqlama g'arazli yondoshuvi»<sup>1</sup> o'z isbotini topadi. Chunki, XX asr boshlarida Qarshi shahrida hammasi bo'lib, 800 ta ovrupoliklar (rus aholisi) yashab turgan edi. Isyon kunlarida temir yo'l sohasida ishlaydigan kam sonli ovrupoliklardan halok bo'lganlar e'tibordan soqit qilinmaydi. Lekin, ularni yoppasiga qirish haqidagi gap uydirmadan boshqa narsa emas. Qurolli g'alayondan keyin ham Qarshi shahrida, uning «yangi shahar» qismida ovrupoliklar–ruslar yashashda davom etganlar. Qurolli isyon kunlarida shaharning temir yo'l shoxobchasi buzib

tashlanadi, qarshilik ko'rsatgan muhandislar, ish boshqaruvchilarning ba'zi birlari o'ldiriladi. Ovrupolik ayollar, bolalarning o'ldirilishi haqiqatga mutlaqo zidda'vodir. Buni BSB viloyat bo'limi tergov guruhi boshlig'ining, «Mahmarayimbek va Xo'janazar Inotullayev rahbarligidagi qo'zg'olonning qilgan birinchi harakati Qarshi temir yo'l shoxobchasini buzib tashlash bo'ladi. Temir yo'l mol–mulki talon–taraj etiladi, temir yo'l xodimlari va ishchilarini qamoqqa olishlar, kaltaklashlar, otib tashlashlar amalga oshiriladiki, uning hisobiga yetish qiyin. Xuddi shunday manzara Qarshi shahrida ham yuz beradi, «Yosh buxoroliklar» inqilobiy harakatining arboblari ommaviy ravishda qamoqqa olinadi, ulardan biri, taniqli arbob o'rtoq Behbudiy junbushga kelgan sobiq amir amaldorlari hukmiga topshiriladi, natijada, o'rtoq Behbudiy olomon qilinib, vahshiyona tarzda o'ldiriladi»,- degan mubolag'ali xulosasi misolida ham ko'rish mumkin.

Qurolli isyonning bosh rahbari Nuriddin xoja Og'oliq bo'lganligini tasdiqlovchi dalolatlar yetarli, deyish mumkin. Qurolli g'alayon ishtirokchisi bo'lgan Elmurod Xolmurod o'g'li 1924 yil oktabrida Buxoro xalq sovet respublikasi BSBsiga, «1920 yilda Xo'janazar miroxur qurboshi Nuriddin xoja Og'oliq buyrug'i bilan 30 jigit to'plab, sovetlarga qarshi harakat olib bordi, shu yili yana Og'oliq topshirig'iga ko'ra, o'z odamlari bilan Qarshi viloyati temir yo'l shoxobchasini buzib tashladi», deb ko'rsatma beradi. Bundan chiqadigan xulosa shundaki, «Aksilinqilobiy tashkilot»ning faoliyatiga rahbarlik markazlashtirilgan holda olib borilgan, har bir guruh boshlig'ining (qurboshining) mas'uliyati, bajaradigan vazifasi belgilab qo'yilgan, muvofiqlashtirib borilgan<sup>1</sup>.

Xo'janazar miroxur Inotullayev sovetlarning porox ishlab chiqaruvchi korxonasini ham yakson etadi. Bu korxonada hali Buxoro xonligi tugatilmagan davrda, sovetlar tomonidan pinhona ravishda, Qarshidan bir muncha narida joylashgan Shakarjo'y degan xilvat qishloqda barpo etilgan edi.

Yepifanov o'z «Sharh»ida bu haqda, «Inotullayev Shakarjo'y qishlog'idagi neft qidiruv partiyasiga bosqin uyushtirib, 11 rus kishisini–muhandis va xodimlarni qirib tashlaydi, stansiyaning yakson qiladi, 36 botmon poroxni qo'lga tushiradi», deb

---

<sup>1</sup> Ravshanova G. Qashqadaryoda milliy qarshilik haraqati tarixidan. Toshkent., 2010.

yozadi. Oradan 5 oy o'tib, shu jinoiy ish bo'yicha chiqarilgan «Ayblov xulosasi»da, «Xo'janazar Inotullayev 20–yilda porox ishlab chiqarish stansiyasiga bosqin qilib, shu stansiyaga xizmat ko'rsatuvchilarni vahshiyona ravishda o'ldiradi, 5 vintovka, 36 botmon poroxni olib ketadi»,- deyiladi.

1924 yilda guvohlik bergan Elmurod Xolmurod o'g'li ham, «kunlarning birida Xo'janazar miroxur o'z ukalari bilan birga Qarshi porox ishlab chiqarish korxonasiga hujum qiladi, ular 36 botmon poroxni 6 tuya va 2 otga ortib olib ketadilar»,- deydi.

Bosh siyosiy boshqarmaning Qashqadaryo viloyat bo'limi «Aksilinqilobiy tashkilot»ning rahbarlaridan biri bo'lgan Mirzo Navro'z Po'latovni sovetlarga qarshi kuchli targ'ibot olib borishda ayblaydi. Qashqadaryo viloyat militsiyasining boshlig'i Doniyorbek uning ta'siri ostida sovet hokimiyatidan yuz o'girib, 180 qurollangan militsionerlari bilan «Aksilinqilobiy tashkilot» tomoniga o'tganligi, mustabid tuzumni ag'darib tashlash yo'liga kirganligi alohida qayd etiladi.

Sovet davri tarixshunosligida Doniyorbekning mas'ul lavozimdan voz kechib, mustabid tuzumga qarshi kurashga kirganligi, aqalli, eslatilmaydi ham. Sovet militsiyasida ishlayotgan ko'pgina yurtiga sodiq, g'ururi baland kishilar mustabid tuzumdan yuz o'gira boshlagan edi. Bu vaqtda SHERobod viloyatida polkovnik Hasanov 85, Buxoro xalq respublikasining militsiya ishlari noziri, polkovnik Rizo Ali o'z qo'l ostidagi 700 militsioner bilan sovetlarga qarshi kurashayotgan kuchlar tomoniga o'tgan edi.

Doniyorbek Sharqiy Buxoroda sovetlarga qarshi kurash olib boradi, Rizo Ali bilan birgalikda Dushanbedagi ruslar garnizonini qurolsizlantiradi, sovetlarning yana ikki rota va pulemet bo'linmasini taslim qiladi. «Aksilinqilobiy tashkilot»ning g'oyaviy faollaridan yana biri Hoji Abdulaziz mullo Boqixo'jayevning Doniyorbek haqida aytgan fikrlari diqqatga loyiq. U, «Men Doniyorni un tegirmonimizning sherigi sifatida bilaman. 1920 yilda Qashqadaryo ijoqumi raisi Otaxo'jayev4 uni viloyat CHK (favqulodda hay'at) komissari qilib tayinladi. Uning qo'l ostida 200 ga yaqin kishi (militsioner) bor edi. 1921 yilda Doniyor Hisorga Usmonxo'jayev bilan birgalikda yurish qilib, Sharqiy Buxorodagi

amir ta'siridagi hokimiyatga qarshi kurashgan edi. Sharqiy Buxoroda 8 oyga yaqin bo'lib, ular Usmonxojayev bilan birga qaytib kelgan edilar. Taxminan bir oydan so'ng Doniyor 200 kishilik guruhi bilan G'uzorga, bosmachilarga qarshi kurashish uchun boradi. Ikkinchi kuni Buxorodan yana Usmonxo'jayev yetib keladi, ular uchrashadilar. Shundan keyin Doniyor qurboshi bo'lib ketadi, Usmonxojayev esa Afg'onistonga qochib o'tadi», - deydi.

Mirzo Navro'z Po'latov ham sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan Qashqadaryo viloyati militsiyasining sobiq boshlig'i Doniyorbek haqida o'z fikr-mulohazasini bildirgan. «Doniyorbekning bosmachilikka ketishi shunday bo'lgan edi, - deydi Mirzo Navro'z miroxur, - Buxoro xalq sovet respublikasi Markaziy hukumati farmoyishi bilan Doniyor o'z-o'zini qo'riqlash guruhi (ko'ngilli otryad-G.R.) boshlig'i etib tayinlangan edi. U bosmachilikka qarshi kurashish uchun Hisorga yurish qiladi. Ertasi kuni Buxorodan BXSR ijroiya qo'mitasi raisi Usmonxo'ja1 (famiyasini bilmadim) keladi va Doniyor izidan Hisorga yo'l oladi. Bir necha vaqtdan keyin Doniyor qarorgohidan 3 ta militsioner qochib kelib, Usmonxo'ja yetib borganligini, ular ikkalasi ham sovetlarga qarshi yo'lga o'tganligini ma'lum qiladi».

Doniyorbekning sovetlarga qarshi kurash yo'liga o'tishida «Aksilinqilobiy tashkilot»ning ta'siri katta bo'lgan. Doniyorbek 1923 yilda Sharqiy Buxoroda, sovetlarga qarshi olib borilgan janglarning birida halok bo'ladi. Asli kosib bo'lgan, tegirmonchilik bilan shug'ullangan Doniyorbek vatan ozodligi yo'lida shahid ketadi.

«Aksilinqilobiy tashkilot»ning sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo'zg'olonni tayyorlash va amalga oshirish borasida, uning jangovar faollaridan biri, isyon paytida 35 yoshda bo'lgan, Qamashi (Kasbi tumani) qishlog'ilik miroxur Mamasho Doniyor o'g'lining fikrlari muammoga aniqliklar kiritishi bilan ahamiyatlidir:

«1920 yilda inqilobiy harakat kirib kela boshlagach, odamlarda qo'rquv va sarosimalik kuchayib ketgan edi. Bu vaziyatni hisobga olgan Qarshi hokimi Tog'aybek va uning noibi Nuriddin xoja Og'oliq, o'zlariga yaqin amaldorlar

ko‘magida aholi orasida sho‘rolar hokimiyatiga qarshi targ‘ibotni kuchaytirib yuborgan edilar. Ular «Yosh buxoroliklar»ning Qarshidagi izdoshlari – «Yosh qarshiliklar»ning inqilobiy harakatiga barham berish yo‘lini tutadilar.

Qarshi tumani va Qarshi shahrining o‘zida isyonni tayyorlash ishiga Tog‘aybek bilan birga Mirzo Navro‘z Po‘latov, Erka amin Do‘stmurodov, Xo‘janazar Inotullayev, Mahmarayimbek Abdusattorov, uning ukasi Abdurasulqulbek, Hoji Abdulaziz mullo Boqixo‘jayevlar jonbozlik ko‘rsatadilar. Ularga Sharofboy va mufti Nusratullo bosh bo‘lgan. Isyonga tayyorgarlik ishi, «Yosh buxoroliklar»ni bostirish rejasi aholi orasida qurbon hayiti (7 sentabr, seshanbadan chorshanbaga o‘tar oqshomi–G.R.) kuniga muvofiqlashtirib olib borilgan edi. Ular bolsheviklarni haydab yuborishni, amirni taxtga tiklashni maqsad qilib qo‘ygan edi. Ko‘p o‘tmay, mo‘ljallangan kunda, targ‘ibotlar natijasida, Og‘oliq va Tog‘aybek boshchilik qilgan aksilinqilobiy g‘alayon amalga oshdi.

Yuqorida ismlari zikr etilgan kishilar Tog‘aybekdan qurol olib, minglab kishilarni qo‘zg‘olonga boshladilar. Isyon 4–5 kun davom etgan edi. Qizil armiya siquvi ostida g‘alayon bostirildi. Qo‘zg‘olon ko‘targan aksilinqilobiy arboblardan, uning ishtirokchilari har tomonga to‘zg‘ib qochdilar, ayrimlari Tog‘aybek bilan Afg‘onistonga ketdilar.

## **2.2. Qashqadaryoda milliy ozodlik harakatiga barham berilishi, vatanparvar kuchlarning qatag'on etilishi**

30-yillarda qamoqxonalar mahbuslar bilan to'lib-toshgan edi. O'tkazilgan yersuv islohoti, partiya va sovet apparatlaridagi tozalov, jamoalashtirish, quloqlashtirish tadbirlari Qashqadaryo okrugidagi to'rtta turmada me'yoridan bir necha barobar ortiq mahkumlar to'planib qolishiga olib kelgan edi. Behbudiy shahridagi ikkita, Shahrisabz va G'uzordagi har qaysida bittadan bo'lgan qamoqxonalar qatoriga tumanlardagi KPZlar (dastlabki saqlab turish xonalari) ham qo'shiladigan bo'lsa, hibsga olinganlar soni juda ko'p bo'lganligi isbot talab etmaydi. Mamlakatda bo'lgani kabi, Qashqadaryodagi qamoqxonalar muntazam ravishda tirband bo'lib kelgan. 20-yillarda Vatan ozodligi kurashchilari bilan qamoqxonalar to'lgan bo'lsa, 30-yillarga kelib, yuqorida aytib o'tilgan islohotlar jabrdiydalari ular o'rniga kelgan.

Okrug qamoqxonalarning muntazam ravishda tiqilinchligi, bir kishi o'rniga 4-5, ba'zida bundan ham ko'p mahbusning to'g'ri kelgan. 1935 yilning 2-noyabrda Qashqadaryo okrug firqa qo'mitasi byurosida tag'in shu – qamoqxonalarning tirbandligi masalasi muhokama boisi mavzusi qilib olinadi. Qabul qilingan, "mutlaqo maxfiy" belgisi qo'yilgan 18-qarorda, "1935 yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, Behbudiy qamoqxonasida 522 mahbus saqlanayotganligi ta'kidlansin, - deyiladi unda, - bu belgilanganidan 289 kishi ortiq demakdir. Shahrisabz turmasida shu yil oktyabr oyida me'yordan ortiqcha 116 kishi qamoqda ushlangan. Bulardan tashqari, tumanlardagi KPZlarda: Chiroqchi tumanida – 40, Kosonda – 8, G'uzorda – 32, Shahrisabzda – 3, Yakkabog'da – 26, Kitobda – 8, Behbudiyda – 27 mahbus saqlanayapti".<sup>1</sup>

Behbudiy qamoqxonasining boshlig'i Kichkin ma'lumotiga ko'ra, NKVD (ichki ishlar xalq komissarligi) turmasida mahbus bo'lib yotganlar orasida Tursun Xudoyberdiev (27 VIII 1935), Qiyom Axiyorov (15 X 1935), Mahmud Keldishev (1 IV 1935), Hakim Fattohov (20 IV 1935), Dadajon Ikromov (14 X 1935), Ziyod

---

<sup>1</sup> Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Qatag'on. T., Sharq. 2011. 95 bet.



Qurbonov (10 VII 1935), Latif Qobilov (17 VII 1935), Xurram Muhammadiev (17 VII), Damin Sherov (17 VII), Navro‘z Umbarov (17 VII), Leshi Umbarov (17 VII), Eshniyoz Usmonov (17 VII), Barno Xolmatov (17 VII), Sulaymon Yoqubov (16 X 1935), Ro‘zi Tursunov (18 VII 1935), Ziyot Jo‘raev (27 VIII 1935), Kenja Shodiev (5 VIII 1935), Ravshan Xolmatov (4 VIII 1935), Bobo Yo‘ldoshev (5 VIII 1935), G‘ofir Salimov (3 VIII 1935) singari mahbuslar bo‘lgan. Shu yilning aprelidan to avgustiga qadar 119 ta kishi ozodlikdan mahrum etilgan. Shahrisabz turmasi boshlig‘i Kaymetov o‘z qo‘l ostida bo‘lgan 78 mahbus haqida ma'lumot berib, Qurbon Yoqubov, To‘xtamish Xo‘jaev, Shodi Omonov, Jovli Qobilov, Bobomurod Boymatov, Qurbon Nazarov<sup>1</sup> kabi qamoqda yotganlar nomlarini ko‘rsatib o‘tadi.

Qamoqxonalar, odatda, bahor va kuz oylarida mahbuslardan to‘lib-toshardi. Ekish kampaniyasi davrida turli sabablar bilan qamoqqa olinganlar soni ortib ketardi. Paxta ekmagani, soliqni to‘lamagani, qishloq xo‘jalik rejasini bajarmagani, ekinni o‘t bostirgani, suvni tomorqaga ochgani, g‘o‘zaga mol tushirgani va sh.k. “jinoyat”lar uchun qishloq odamining borar joyi qamoqxona bo‘lgan. Kuzda, hosil ko‘tarilish paytida dehqonlar paxta yoki don topshirish majburiyatini ado etmagani, tirikchilik ilinjida paykalidan chiqqan bir qism bug‘doy, arpani yashirgani uchun yana turmalarga tiqilardi. 1935 yilning avgustida ham turmaga aylantirilgan “Odina” masjidida mahkumlar ko‘pligidan joy yetishmas, hovli sahnalarda ham oyoq-qo‘liga kishan urilgan mahbuslar tiqilishib yotardi.

Turma boshlig‘ining 1935 yil 24-avgustda tuzgan ro‘yxatida qamoqxonada belgilangan me'yordan oshiqcha saqlanayotgan mahbuslar nomma-nom sanaladi. Ozodlikdan mahrum etilganlarning aksariyati kambag‘al dehqonlar, o‘rtahollar, quloqlar edi. Ular orasida bir-ikki yillab tergovsiz, sudsiz yotganlar ham ancha-munchani tashkil etardi. Buni quyida keltiriladigan ro‘yxat ham dalolat etadi:

Mahbusning ismi sharifi	qamoqqa olingan vaqti	ijtimoiy mansubligi
Hamro Suyarov	1934 yil 14-dekabr	kambag‘al
Haydar Mirqobilov	1935 yil 4-iyun	– “ –

<sup>1</sup> Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Qatag‘on. T., Sharq. 2011. 137 bet.

Muhammadi Karimov	1935 yil 25-iyul	– “ –
Fayzulla Xoniev	1935 yil 16-iyul	– “ –
Boymurod Tog‘aev	1934 yil 1-dekabr	– “ –
Toyloq Eronov	1935 yil 27-yanvar	– “ –
Sharof Mavlonov	1935 yil 27-may	– “ –
Abdurashid Qurbonov	1935 yil 5-iyun	– “ –
Tog‘aymurod Bo‘riev	1934 yil 9-noyabr	o‘rtahol
Eshonqul Mahmatqulov	1935 yil 8-yanvar	kambag‘al
Abduzoir Hakimov	1935 yil 21-aprel	kolxozchi
Eshonzoda Muhammadyorov	1935 yil 26-aprel	kambag‘al
Rayim Qo‘yboqarov	1935 yil 15-may	– “ –
Toshmurod Yarmanov	1935 yil 11-aprel	– “ –
Umir Rasulov	1935 yil 21-iyul	– “ –
Arab Mirzaev	1935 yil 2-iyun	– “ –
Haydar Voitov	1935 yil 13-iyun	– “ –
Rahim Jo‘raev	1935 yil 17-iyul	– “ –
Jo‘raqul Tog‘aev	1935 yil 4-iyun	batrak
Mamatqul Jo‘raev	1934 yil 31-may	kambag‘al
Ziyo Muhitdinov	1934 yil 1-iyun	-//-
Namat Sherg‘oziev	1935 yil 4- yanvar	-//-
To‘ychi Boynazarov	1935 yil 25- mart	-//-
Nurmat Eshonqulov	1935 yil 25- iyun	-//-
Umar Ro‘ziev	1935 yil 10-mart	-//-
Abdusamad Jalilov	1935 yil 22- fevral	-//-
Rahmonqul Sattorov	1935 yil 31-may	-//-
Hamdam Jo‘raev	1935 yil 9-iyul	-//-
Xuram Muhammadiev	1935 yil 17-iyul	xizmatchi
Mahmatmurod Sherov	1935 yil 12-iyul	kambag‘al
Barno Xolmatov	1935 yil 17-iyul	-//-
Latif Qobilov	1935 yil 25-aprel	-//-

Navro‘z Umbarov	1935 yil 17-iyul	-//-
Muhammadrayim Toshtemirov	1935 yil 13-iyun	-//-
Saidnazar Beknazarov	1935 yil 10-may	o‘rtahol
Xushmurod Omonov	1935 yil 13-iyun	kambag‘al
Po‘lat Madaminov	1935 yil 21-iyun	-//-
Xo‘jaqul Saidov	1935 yil 13-iyun	-//-
Rahmat Haydarov	1935 yil 9-aprel	o‘rtahol
Bo‘taylor Sarmonov	1935yil 9-avgust	kambag‘al
Parda Shodmonov	1935yil 1-avgust	-//-
Husan Saibov	1935yil 9-iyul	-//-
Ahmad Saidov	1935yil 9-iyul	kambag‘al
Doni Musulmonqulov	1935yil 28-may	-//-
Qulnazar Azimov	1935yil 12-may	-//-
Hoshim Qurbonov	1935yil 11-aprel	-//-
Qayum Jo‘raev	1935yil 11-aprel	-//-
Elmurod Nurboev	1935yili 4-aprel	o‘rtahol
Barat Bo‘ronov	1935yil 10-iyun	-//-
Mahammadi Xoliqov	1935yil 3-iyun	kambag‘al
Abdunazar Ahmidov	1935yil 20-aprel	quloq
Madamin Usmonov	1935yil 20-aprel	ishchi
Mingish Iskandarov	1935yil 20-iyun	quloq
Hazratqul Arziev	1935yil 5-iyul	kambag‘al
Rayimqul Begaliev	1935 yil 5-iyul	-//-
Ziyod Qurbonov	1935 yil 10-iyul	-//-
O‘rinbobo Erdonov	1934 yil 6-noyabr	-//-
Bo‘ron Erdonov	1935 yil 13-iyun	-//-
Tillo Ibolov	1935 yil 19-iyul	-//-
Fayzi Yo‘ldoshev	1934 yil 6-noyabr	-//-
Botir Shomurodov	1935 yil 17-noyabr	-//-
Orol Sulstonov	1935 yil 10-iyul	-//-

Abdumo‘min Pirimqulov	1935 yil 18-iyun	-//-
Qosim Pirimqulov	1935 yil 19-iyun	-//-
Boboyor Xudoyberdiev	1935 yil 18-iyun	-//-
Quldosh Xo‘jamiyorov	1935 yil 3-iyul	-//-
Norqul A'zamov	1935 yil 14-iyul	quloq
Hoshim Fattahov	1935 yil 20-aprel	xizmatchi
Fayoz Husmniddinov	1935 yil 31-iyun	-//-
Abdubakir Yo‘ldoshev	1935 yil 27-iyun	kambag‘al
Abdulla Shermatov	1935 yil 7-iyul	-//-
Ochil Qulmirzaev	1935 yil 29-may	-//-
Karim Quadratov	1935 yil 5-may	kambag‘al
Habibullo Ubaydullaev	1935 yil 15-may	-//-
Shermat Eshnazarov	1935 yil 29-aprel	quloq
Elomon Xushnazarov	1935 yil 17-iyun	kambag‘al
Ali Do‘stnazarov	1935 yil 25-iyul	-//-
G‘afur Salimov	1935 yil 9-avgust	quloq
Mamadamin Yoqubov	1935 yil 12-avgust	kambag‘al
Fayzullo Mustafoulov	1935 yil 9-avgust	quloq
G‘aybullo Tangriqulov	1935 yil 3-avgust	-//-
Jo‘ra Mirzaev	1935 yil 8-avgust	kambag‘al

Behbudiy, G‘uzor va Shahrisabz qamoqxonalari, tumanlardagi dastlabki qamoq hujralarida bir oyda o‘rtacha 800 dan 1,5mingga qadar maxbus saqlangan. Bir hujrada 8-10 mahbus saqlanishi mo‘ljallangan bo‘lsa-da, unga 20 tadan oshiq mahkum joylashtirilgan. 1935 yilning avgust oyida okrug qamoqxonalari mavjud joylarga nisbatan 549 ta ko‘p mahbus bo‘lgan. Bunday tiqilinchlar oziq-ovqat yetishmasligini keltirib chiqarishdan tashqari, yuqumli kasalliklar tarqalishiga ham sabab bo‘ladi. Hatto, tergov jarayonida bo‘lgan mahbuslar ham kasalga chalinib, hayotdan ko‘z yumgan hollar, shu boisdan istisno qilinmagan.

Mahbuslarga beriladigan jazolar juda og'ir bo'lardi. Davlatdan g'alla yashirgan dehqonlar, xotini yoki qizining ochilishiga to'sqin bo'lgan erlar, otalar otuvga hukm qilingan hollar bo'lgan. Bu xususda oldingi sahifalarida O'zbekiston rahbarlaridan biri Qosimxo'jaevning so'zlarini keltirildi. Behbudiy qamoqxonalarda ham oliy jazoga hukm qilinganlar to'p-to'p bo'lib hujralarda tiqilib yotishgan. 1932 yilning 24-dekabrida sovet organlarini jazavaga solgan bemisl qochuv yuz beradi. Otuvga hukm qilingan 16 mahbus jazo ijrosiga sanoqli kunlar qolganda turmadan qochishga muvaffaq bo'ladi. Mahbuslar qochishni qanday tashkil etgan, bu ish ortida kimlar turgan, afsuski, bu haqda ma'lumotlar saqlanmagan. O'sha kuni nazoratchi Yo'ldosh Hamroev navbatchilikda bo'lgan va postini tashlab ketib, yashirinib yurgan:

“Behbudiy qamoqxonasida nazoratchi bo'lgan Yo'ldosh Hamroev navbatchiligida,-deyiladi Behbudiy tumani ishchi-dehqon nazorat komissiyasining 1933 yil 19-fevraldagi Prezidium yig'ilishi 6-qarorida,-ya'ni, 1932 yilning 24-dekabrida sud tomonidan otishga hukm qilingan 16 ta mahbus kameradan qochib ketgan. Shu kuni Yo'ldosh Hamroev postda turgan. Sud tomonidan otishga hukm qilingan 16mahbus qochib ketgandan keyin Yo'ldosh Hamroev postni tashlab ketgan va yashirinib yurgan”<sup>1</sup>.

Otuvga hukm qilingan mahbuslarning navbatchi-nazoratchi bilan til biriktirganmi-yo'qligi ham aniq emas. Navbatchi muqarrar jazodan qo'rqib, postni tashlab ketgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Nima bo'lganida ham, uni tutib olganlar va qamab qo'yganlar.Qamoqxonada ishlash oson emasda. Murtazo Husainov (turkman) degan kishi 1930 yilda Behbudiy qamoqxonasi boshlig'i bo'lgan. 1901 yilda tug'ilgan bu kishining g'animlari ko'p bo'lgan, ular Husainovning xotinini qo'lga oladilar, ayol ichkilikka ruju qiladi, jinoyatchilar bilan til biriktirib, eriga suiqasd filadi. Husainov ishga borayotgan paytda xotini sheriklari bilan unga tashlanadi. Xotinini otib o'ldiradi, qolganlari qochib qutiladi. Bu ishi uchun qamoqxona boshlig'i mahbusga aylanadi...

---

<sup>1</sup>. Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Qatag'on. T., Sharq. 2011. 138 bet.

30-yillar boshlarida sho‘ro qatag‘on qozoni ostiga qalangan o‘tinlar burqsib tutayotganda. U qizishib, hademay, o‘t olar, qozon jo‘shib qaynashga tushardi. Qamoqxonalar qatag‘on qozonining qaynashiga qarab, to‘lgandan to‘lib borardi. Mahbusxonalar konveyr usulida uzluksiz, kecha-kunduz ishlardi. Kim qamoqqa olib kelinayotir, kim so‘roq, berayotir, kim jazo o‘tash joylariga jo‘nab ketayotir, kim hukm ijrosini kutayotir... 30-yillarning asosiy qurbonlari dehqonlar, qishloq aholisi bo‘lgan edi.

Mamlakat ichkarisida olib borilayotgan bir yoqlama urush, eng avvalo, qishloqni xonavayron qilgan edi. Quloq qilinganlar, jamoa xo‘jaligiga kirmay, o‘z kunini o‘zi ko‘rayotgan yakka xo‘jaliklar bajarib bo‘lmaydigan majburiyatlar, og‘ir soliqlardan mayib holga kelgan edi. Mol-holi musodara etilgan o‘ziga to‘q bo‘lgan dehqonda faqat tavqi la‘nat bo‘lib, “quloq” degan tahqirli nom qolgan edi. U shu holida ham tinch qo‘yilmagan, qishloqda favqulodda biror noxush voqeya ro‘y bersa, ayb ana shu quloqqa yopishtirilardi. Jamoa va sovet xo‘jaliklari ham o‘zini o‘nglab ketolmayotgan edi. Qanday o‘nglasin ham. Xodimlarning qo‘nimsizligi, kovla-kovla, “yot unsur” balosi yuqori va quyi bo‘g‘indagi biror rahbarning yolchitib ishlatishiga yo‘l bermasdi.

yer-suv islohoti, jamoalashtirish amalga oshirilayotgan yillarda bu tadbirlarning to‘g‘riligiga shubha bildirganlar ko‘p bo‘lgan. Nima bo‘lganda ham, jamoa xo‘jaliklari o‘zini oqlaydigan qishloq xo‘jaligi tuzilmalaridan emasdi. Unda shaxsiy manfaatdorlik chinorlar orasiga ekilgan tolday bir ahvolda qolardi. Xususiy mulkchilikning barham topishi 30-yillarda ham qashshoqlik, ocharchilikning kuchayishini ta‘minlagan omil bo‘lgan edi. Xususiy sektorning kun sayin siqib chiqarilishi natijasida, soat sayin oziq-ovqat tanqisligi ortib bordi. Bu jihatdan, oddiy askar Vasiliy Bardin aytgan so‘zlar qimmatini bo‘lakcha. 1936 yilning dekabr oyi 5-kunida Qashqadaryo okrug harbiy komissariati xodimlarining yangi konstitutsiya loyihasi to‘g‘risida Stalin ma‘ruzasiga bag‘ishlangan umumiy yig‘ilishi bo‘ladi. Yig‘ilishda qizil askar Vasiliy Vasilevich Bardin ham chiqish qilib, o‘z fikrlarini bayon qiladi. Uning so‘zlari saratonda gumburlagan momaqaldiroqday mutasaddilarni vahimaga soladi. Oradan 3 kun o‘tib, okrug

militsiyasining boshlig'i Vorobev okrug partiya qo'mitasi kotibi Piskunovga "mutlaqo maxfiy" qilib, 5-6552-raqamli ma'lumotnomani yo'llaydi:

"Komandaning qizil askari (VLKSM a'zosi) Vasiliy Vasilevich Bardin yig'ilishda so'zga chiqib, -deyiladi unda, -jamoalashtirish va quloqlarning sinf sifatida tugatilishiga qarshi ruhdagi partiyaga qarshi nazariyasini oshkora bayon qildi.

Bardin, «Mamlakatimizda og'ir sanoat rivojlanishining dastlabki yillarida iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirdik, ishchilar 400-500 gr.lik non ulushi bilan cheklandilar. Menimcha, partiya va hukumat og'ir sanoatni rivojlantirish bilan bir qatorda, dehqon xo'jaliklarida xususiy mulkchilikni o'z kuchida qoldirganida juda to'g'ri bo'lardi, xususiy kapitalistik sektor g'allasidan foydalanilganda edi, biz birinchi besh yillikning birinchi yillarida don masalasida mamlakatning qiynalib qolishiga yo'l qo'ymagan bo'lar edik.

1937 yilda bolsheviklar tomonidan Rossiyada davlat to'ntarishi amalga oshirilganiga, sovetlarning hokimiyatga kelganiga 20 yil to'layotgan edi. O'zini yo'qsillar davlati, xalqparvar, Chor despotizmiga qarshi deb jahonga jar solgan sovet hokimiyati tarixan olganda, katta yo'lni bosib qo'ygandi. Qizil saltanat idorasi boshlangan kundan e'tiboran, uning xorij bilan ham, mamlakat ichkarisi bilan ham munosabati yaxshi emasdi. Ayniqsa, juda katta hududlarni qamragan SSSR jahondan tikonli simlar bilan ixota qilingan, o'z xalqiga nisbatan uzluksiz zo'ravonlikni, ichki qirg'inni davom ettirish bilan band edi. Tomchida quyosh aks etganidek, Qashqadaryo vohasi misolida sovetlarning siyosiy-fashistik qiyofasini gavdalantirishga qaratilgan chizgilardan uning butun SSSR bo'ylab o'tkazgan qattol hukmronligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi. O'zbekiston va uning istalgan viloyati tarixidan 1917-1940 yillarga e'tibor qaratilgudek bo'lsa, Qashqadaryoda amalga oshirilgan tajovuz, istibdod va qatag'onning bundanda og'ir dalillari to'lib-toshib yotganligiga amin bo'lish mumkin. O'rta Osiyo respublikalari, hatto, Rossiyaning o'zida ham muttasil qirg'in hukmronlik atributi bo'lib qolgan, rus xalqi qizil fashizm yovuzliklarini, ehtimol, ko'proq ham tortgan edi.

Sovet hokimiyati o'zining 74 yillik tarixida qo'llagan qatag'onlarni, muarrixlar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan, deb hisoblaydilar. Mavzuga teranroq va aniqroq yondoshiladigan bo'lsa bu qattol siyosatda faqat bitta yo'nalish hukm surganligini – bu surunkali qatag'on yo'nalishi ekanligi ma'lum bo'ladi. Surunkali qatag'onning nisbatan yumshoqroq va qaqshatgich cho'qqiga ko'tarilgan davrlari (bosqichlari emas) bo'lgan. O'tgan asrning 20 yillari, 30-yillarning ikkinchi yarimlari, 50-,60-,80-yillar birinchi yarimlari qizil qatag'onning dahshatli, qaqshatgich darajadagi avj nuqtaga ko'tarilish davrlari hisoblanadi. Bu muddatlardagi oraliq yillar nisbatan yumshoqroq kechgan bo'lishiga qaramay, ijtimoiy mansubligi, qarashlari, "yot unsurligi", munosabati nuqtai nazardan fuqarolarning qamoqqa olinishi, surgun etilishi, mehnat batalonlariga Sibirda qurilayotgan sanoat qurilishlariga yuborilishi, otib yuborilishi kabi jazolar qo'llanishida namoyon bo'ladi. "Yumshoq qatag'on" asta-sekin o'limga mahkum etadigan usul edi. Qaqshatgich qatag'on sovet hokimiyatining tug'ma marazi bo'lib, vaqti-vaqti bilan tutib qolar, bu kasallik oylab, gohida, yillar cho'zilib ketar edi. Bunday yillarni xalq "mudhish yil", "qonsiragan yil", deb atagan.

1937 yil ana shunday qonsiragan, mudhish yil bo'lib tarixga kirdi, aniqroq aytganda, sovet hokimiyati xalqqa qarshi qo'llagan qatag'onlarning cho'qqisi sifatida insoniyat xotirasidan toabadga o'chmaydigan bo'lib joy oldi. Qatag'on davrida to'kilgan qonlarning bir irmog'i Qashqadaryoniki edi. Oqizilgan begunohlar qonlarini yillar ham, davrlar ham yuvib ketolmaydi. Qashqadaryoning 1937 yil tarixini boshlash fursati yetdi.

Okrugda dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish ikki yil ichida – 1935 yilning mayidan 1937 yilning mayiga qadar 68,9 foizlik darajadan 92,8 foizlik ko'rsatkichga ko'tariladi. Jamoa xo'jaliklari vohadagi barcha ekin maydonlarining 394000 gektaridan 290000 gektarini o'z qamroviga oladi. MTSlar-mashina-traktor stansiyalari soni 6 tadan 13 taga yetadi. Bu davrda okrugda traktorlar soni 311 tadan 1094 taga ortadi, kombaynlar 11 tadan 374 taga, paxta seyalkalari 34 tadan 190 taga yetkaziladi. Jamoa xo'jaliklariga mexanizatsiya kirib kelayotganiga qaramay, paxta hosildorligida jiddiy o'zgarish yasalmaydi. 1934 yilda har gektar



yerdan o‘rtacha 3,4 s. dan paxta yetishtirilgan bo‘lsa, 1936 yilda bu ko‘rsatkich 6,9 s. darajasida bo‘ladi. Bu omoch dehqonchiligidan plug dehqonchiligi afzalliklarini tafovut qilishda juda kamlik qilardi.

Partiya hujjatlarini tekshirish va almashtirish bilan bog‘liq keyingi tozalovda (1935-1936 y.) Qashqadaryo partiya tashkilotidan 246 kommunist partiyadan o‘chiriladi – qatag‘onga tortiladi. Bulardan: Trotskiychi-Zinovevchilar 3 ta, partiyaga kirish vaqtida o‘zining ijtimoiy mansubligini yashirgan, yot va dushmanlar muhitidan bo‘lganlar 47 a‘zo, 20 nomzod, oq gvardiyachilar 3 ta, quloqlar 173 ta edi. Partiyadan chiqarilganlarning 133 tasi a‘zolar, 113 tasi nomzodlar edi.

1935 yilning avgust oyi oxirlarida Qashqadaryo okrugi bo‘yicha boylar, sobiq amir amaldorlari, ruhoniylar, savdogarlar, o‘ziga to‘q xo‘jaliklardan quloq qilinganlarning ro‘yxati tuziladi. Bu ish okrug partiya qo‘mitasi topshirig‘iga muvofiq, ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Genrix Yanovich Veyde<sup>1</sup> zimmasiga yuklatiladi.

Quloqlashtirish okrugda yer-suv islohoti o‘tkazilishi bilan bog‘liq ravishda 1928 yilning 21-dekabridan – 1929 yilning yanvar oyi oxirlariga qadar tezkor va yalpi ravishda amalga oshiriladi. Qashqadaryoda yer-suv islohoti 9 mingdan oshiq boylar, sobiq amaldorlar, ruhoniylar va savdogarlar xo‘jaliklarining tugatilishiga olib kelgan edi. 1928 yilga qadar bo‘lgan sovet hokimiyati dushmanlari boyliklarini tortib olish, “quloq qilish” deb emas, “bosmachilar ko‘makchilarini yo‘q qilish” shiori ostida olib borilgan. Bu to‘g‘rida oldingi qismlarda batafsil hikoya qilindi. yer-suv islohoti – mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish kampaniyasi davomida Qashqadaryo qishloqlarida boylar, sobiq amaldorlar, mullolar, eshonlar, savdogarlarning yashirin ravishda tayyorlangan ro‘yxati bu xo‘jaliklarni juda qisqa muddatda tugatishga imkon beradi.

Yer-suv islohoti amalga oshirilgandan keyin ham qishloqqa nisbatan boshlangan hujum nihoyalanmaydi, aksincha, muntazam va shiddatli davom etadi.

---

<sup>1</sup> Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Qatag‘on. T., Sharq. 2011. 235 bet. Veyde Genrix Yanovich, 1900 yilda tug‘ilgan, latish, ma‘lumoti quyi, IIXK Qashqadaryo okrugi militsiya bo‘limining boshlig‘i. Bu vazifada u 1935-1936 yil mart oyiga qadar faoliyat ko‘rsatgan.

Veyde ro'yxati okrugdagi 8 tuman bo'yicha quloq qilinganlardan 1416 xo'jalikni o'z ichiga oladi. 1925 yilda bir xo'jalik quloq qilinganligi ko'rsatilgan. Bu hol tasodifiy bo'lsa kerak. Chunki, 1924 yildan e'tiboran "bosmachilar ko'makchilari" deb, moli mulki tortib olingan, o'zlari qamab yo otib yuborilgan – tugatilgan xo'jaliklar ro'yxati tuzilmagan va hisobi olib borilmagan, ular soni partiya, sovet hujjatlarida umumiy tarzda aks etgan, xolos. Ro'yxatda 1926 yilda quloq qilingan 11, 1927 yilda tugatilgan 11 xo'jalik boshliqlari nomlari ham aks etgan. Butun okrug bo'yicha ikki yil davomida 22 xo'jalikning quloq qilinganligi haqiqiy ahvolni ifoda eta olmaydi. Bu juda nisbiy raqam bo'lib, militsiya organlari hujjatlarida saqlanib qolganlari, deyish joiz.

Qashqadaryoda "mehnatsiz boyigan", "tekinxo'r", "o'zgalar mehnatini ekspluatatsiya qilish hisobiga moli mulk orttirgan" xo'jaliklarni qatag'on qilish – quloqlashtirish 1928 yilning dekabrda ommaviy tus olib, 1929, 1930, 1931, 1932, 1933-yillarda o'z o'z apogeyiga ko'tariladi. Veyde ro'yxatida ham bu raqamlar misolida mana-man deb, ko'zga tashlanib turadi. 1928 yil dekabr oyining oxirgi o'n kunligida 104 xo'jalik, 1929 yilning yanvar oyi boshlarida 116 xo'jalik quloqlashtiriladi. Bu raqamlarning yer-suv islohoti munosabati bilan 1928 yil yozidan boshlanib, bir necha oy davomida yashirin ravishda olingan boylar, xullas, tugatilishi mo'ljal qilingan xo'jaliklar ro'yxatiga daxli yo'q. Veyde ro'yxati, chamasi, yer-suv islohoti kampaniyasi davrida, ayrim sabablarga ko'ra, ko'rsatilmay qolgan, keyin aniqlangan va yer-suv islohoti komissiyasi emas, militsiya tomonidan quloq qilingan xo'jaliklarni qamraydi. Bu fikrni okrugda yer-suv islohoti komissiyasi tarqatilib (1929 y.) yuborilgandan keyin, 1930-1935 yillar davomida quloqlashtirishning davom etganligi va islohot davridagi nisbatan yanada qattiqroq, zo'ravonlik darajasi oshgan holda olib borilishi dalolat etadi. Veyde ro'yxatida 1930 yilda 262, 1931 yilda 138, 1932 yilda 126, 1933 yilda 127 xususiy xo'jalik yurituvchi oilalar quloq qilinganligi ko'rsatiladi.

Veyde ro'yxati tarixiy-ilmiy nuqtai nazardan tahlil va talqin etilganda, Vatan ozodlik kurashi va 30-yillar sovet qatag'on siyosati tarixida ko'p yangiliklar berishi mumkin bo'lgan manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo

vohasida 1920-1926 yillarda faol davom etgan milliy qarshilik harakati magʻlubiyatidan keyin, oradan 9 yil oʻtgan boʻlishiga qaramay, ozodlik kuchlariga – “bosmachilar”ga koʻmak bergan, hatto, oʻzlari ham ular safida boʻlgan kishilar nomlarining zikr etilishi juda qimmatli dalillardir. Veyde, oʻzi bilib-bilmagani holda, qoʻrboshilarning moddiy va maʼnaviy taʼminot tizimi mavjud boʻlganligini aniq shaxslar misolida ochib beradi. Yana bir muhim jihat shuki, roʻyxatda Buxoro inqilobi kunlarida sovetlar tajovuziga qarshi kurashgan qashqadaryoliklar, Shahrizabzni himoya qilib, isyonda qatnashgan vatanparvarlar ismlari ham zikr etiladi.

Veyde roʻyxatida quloq qilinganlarning qamoqqa olinishi sabablari qisqa va loʻnda ifodalangan boʻlib, shu vaqtga qadar biror tarixiy-ilmiy manbalarda mutlaqo aytilmagan “ommaviy qatagʻon”, “ommaviy qamashlar” yili toʻgʻrisida maʼlumot beriladi. 1933 yilning mart oyi xuddi shunday, “ommaviy qamoqqa olishlar” davri deb koʻrsatiladi. Masalan, Qizil Tom qishlogʻidan boʻlgan yakka xoʻjalik boshligʻi Eshna Avazov 1928 yilda quloq qilinib, uy-joyi, 3 hoʻkiz, 3 ot, 2 sigir, 130 qoʻy, 180 tanob yeri musodara etilgandan keyin ham taʼqibdan qutilmagan. 100 pudlik gʻalla rejasini bajarmagani uchun, “1933 yil mart oyidagi ommaviy qamoqqa olishda” hibsi qilingan.

1933 yilning mart oyida qishloq xoʻjaligi majburiyatlari va soliqlarini bajara olmagan quloqlar yoppasiga qamoqqa olingan, Mahmarayim Boʻriev (Qizil Tom), Rahmon Sattorov (Uz), Meyli Elnazarov (Halovat), Mahmatshukur Xudoynazarov (Tomchi), Rahmon Begmatov (Gaydo), Xudoyberdi Aliev (Koʻktol) singari quloq qilingan dehqonlar “ommaviy qatagʻon” kampaniyasining mahkumlariga aylanadilar. 1933 yilda davlat rejasi qonun darajasiga koʻtarilgan, uni bajara olmaganlar qamoqqa olingan.

1935 yilning 25-avgustidagi holatiga koʻra, Qashqadaryo vohasida quloq qilinganlar darajasi 1934, 1935 yillarda bir qadar pasaygandek tasavvur beradi. 1934 yilda 15, 1935 yilda 10 xoʻjalik quloq qilingan. 1928 yildan muntazam tus olgan quloqlashtirish siyosati 7-8 yil davomida “quloq qilishga” yaraydigan biror oilani qoldirmagan edi. Har bir tumanda tuzilgan quloq xoʻjaliklarini topish va

aniqlash maxsus komissiyasi – uchliklar bu ishda nihoyatda chaqqon va faol edilar, militsiyaning, GPUning ishi ham shu edi. Jazo organlari, xuddi bosmachilik davrida bo‘lganidek, artellar, jamoa xo‘jaliklari qishloq xo‘jalik ishlari kundaligi haqida tezkor ma'lumotlarni yuqori organlarga muntazam yuborib turar edi. Quloqlar, o‘ziga to‘q yakka xo‘jaliklar esa, tamomila ular nazoratida bo‘lib, ularning ekin-tikinigina emas, gap-so‘zi, hatti-harakati ham e‘tibordan chetda qolmas edi.

O‘zbekistondan sovetlar tajovuzi davrida talangan boyliklarning adadini, hatto, tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. yer-suv islohoti bahonasida tortib olingan mol-mulklar ham chamasiz darajada ko‘p bo‘lgan. 1920 yillar oxirlarida Qashqadaryoning quyi hududlaridagi qishloqlarning ko‘zga ko‘ringan boylari Jeynov qishlog‘iga olib borilib, qattiq tazyiqlar ostida oltinlarini berishga majbur etiladi. Bunday hollar Qarshi, Shahrisabz, Yakkabog‘ va Kitobda ham yuz bergan.

## XULOSA

XX asrning 20-30 yillaridagi siyosiy qatag'onlar (Qashqadaryo misolida) mavzusini o'rganib, tahlil qilib quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Vatan mustaqilligidan ulig'roq ne'mat dunyoda yo'q. Ajdodlarimiz ota – bobalarimiz yurt uchun necha bor qulga qurol olgan, istiqlol uchun qancha jonlar qurbon qilingan. Turkistonni mustabid bolshevik istibdodi iskanjaga olganda, erkin, o'zlikni saqlab qolish uchun qattiq kurash olib borgan edilar. Qashqa vohasida XX asrning 20-30 yillarida amal qila boshlagan bosh tozalov ishlari 1930 yildan e'tiboran ommaviy qatag'onga aylanadi. Bungacha ozodlik kuchlarini, vatanparvarlarni, qishloq odamlarini qirgan, qamagan, surgun qilgan zulm saltanati 1937-1938 yillarda yurtimizning taniqli siymolarini, ziyolilarini qatag'on qilishga kirishadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi kurash- milliy ozodlik harakati, garchand, 20- yillarining ohirlariga kelib kuch bilan barham toptirilgan bo'lsa-da, u so'nib yoinki, ta'momila to'xtab qolmadi. Ozodlik uchun bo'lgan intilish turli ko'rinish va shakllarda davom etdi. 30-50,60,80-yillarida o'tkazilgan mudhish qatag'onlar shundan dalolat beradi.

Uchinchidan, Ziyolilar, ijodkorlar sovet mustamlakachilik zulmiga qarshi xalq noroziligini ifodalovchilari bo'lib maydonga chiqadilar. Respublika rahbariyati orasida ham ilg'or fikrli kishilar bo'lib, ular Markaz olib borayotgan milliy o'lkalarni xo'rlash siyosatiga qarshi fikirda edilar. 1937-yilgi qatag'onda Usmon Nosir, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriylar qatorida, O'zbekiston raxbarlari ham qamoqqa olingan, otib yuborilgan edi.

To'rtinchidan, 1917-1918 yillarda Farg'ona vodiysida boshlangan sovetlarga qarshi kurash O'zbekistonning hamma hududlariga yoyildi. Qashqadaryo viloyatida 1920 yil Sentyabrida uyishgan holda vijudga kelgan "Aksilinqilobiy tashkelot", "Qizil armiya qisimlariga o'xshash" muntazam qurolli kurash olib boradigan lashkarlar mustabid tuzumga qarshi kurash olib bordilar.

Beshinchidan, sovetlarning talonchilik, ezishini ko'zlagan islohotlari yo'lida katta g'ov bo'ldilar. Qizil saltanatning o'rnatilishiga qarshi kurashuvchi kuchlar

ortida xalq turgan edi. Bu haqiqat shu davrga doir sho‘ro rasmiy hujjatlarida ham tan olinadi. Xalq qo‘llab-quvvatlagani bois ozodlik kurashchilari bir necha yillar davomida sovet tuzimiga qarshi tura oldi. Sovetlar ozodlik kuchlarini uning ichki ta‘minot manbalarida mahrum etish orqali mag‘lub qilishga muvaffaq bo‘ladi.

Oltinchidan, Qashqadaryo viloyatida sovet hokimiyati o‘rnatilishiga qarshi kurashning tashkel etilishi, vohada uzoq cho‘zilgan milliy ozodlik harakati uni amalgam oshirgan fidoiy vatanparvarlar qurolli kuchlar haqida shu vaqtga qadar yashirib kelingan pinxon saqlangan tarixiy xujjatlar amalda o‘z ifodasini topdi.

Yettinchidan, mustaqillik xalqimizga juda qimmatga tishgan,. Eng kuchli, eng sara yurtdoshlarimiz istiqlol, Ozod va Ticnh kunimizni deb jon fido qilganlar, qamoq, surgun azobini tortganlar, boyligidan, mol-mulkidan, uy-joyidan judo bo‘lganlar. Ularni, ularga qilingan vaxshiyona jabr-sitamlarni, xo‘rliklarni unutish oson emas. Mustaqillik xalqimiz tarixini asliga monant, xolis va halol o‘rganishga keng yo‘l ochdi.

Sakkizinchidan, bizlar shunday bosh egmagan, o‘zligini deb kurashgan otabobolarning, qahramon, alp vatanparvarlarning avlodlarimiz.

To‘qqizinchidan, O‘zbekiston, ona-Vatan mangu ozodlikda gullab-yashnayversin, yurt va el boshiga qaytib bunday mudhish sinov tushmasin.

O‘ninchidan, Ozodlik uchun kurashgan, jon bergan, qatag‘on qilingan otabobolarimiz haqi, O‘zbekistonni mangu asraylik, tuprog‘ini ko‘zga to‘tiyo aylaylik.

### **Tavsiyalar**

Ushbu xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni tavsiya etish mumkin:

- Qashqadaryoda 1920-1930-yillar davomida amalga oshirilgan zo‘ravonlik, qatag‘on siyosat aks ettirilgan fotoal‘bom, jamlamalar yaratish;
- O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida qatag‘on siyosatiga bag‘ishlangan mavzularni kengroq tadqiq etish;
- To‘plangan umumiy natijalardan kelib chiqib xronologik to‘plam yaratish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston". 2014.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. T., O'zbekiston, 2010.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. Toshkent, "O'zbekiston", 2015.
5. Karimov SH., Turg'unov I., Shams'o'dinov R. Vatan tarixi. Uchinchi kitob.-T.; Sharq, 1997 y.
6. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari.-T.: 2000 y.
7. Usmonov. Q. va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.-T.; O'qituvchi, 1996 y.
8. Usmonov I. Qatag'on qurbonlari.-Toshkent: 1992 y.
9. Mahmudov M. Barhayot siymolar.-Toshkent: 1991 y.
10. Shamsutdinov.R.Istiqlol yo'lida shahid ketganlar.-T.: Sharq,2001y.
11. Shamsutdinov.R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari.-T.: Sharq, 2001 y.
12. B.J.Eshov, A.A. Odilov O'zbekiston tarixi T: "Yangi asr avlodi" 2014
13. O'zbekiston tarixi II jild T: "Yangi asr avlodi" 2015
14. Ziyoyev H.Z. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. T., 2001.
- 15.Ziyoyev X. O'zbekiston mustaqillik uchun kurashlarning tarixi. Toshkent, Shaq, 2001.
- 16.Ziyoev X. Bosmachilik: haqiqat va uydirma.-T., O'zbekiston. 2000.
- 17.Ziyoyev X. Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi. T., G'.Gulom, 2000.

18. Alimova D.A., Golovanov A.A. O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari.–T., «O‘zbekiston», 2000.
19. Rajabov Q.K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar. –T., «O‘zbekiston», 2000.
20. Rajabov Q.K. Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati tarixining davrlashtirish muammolari (1918–1935 yillar). O‘zbekiston tarixi, 2000, 1–2 sonlar.
21. Mustafxo Cho‘qay o‘g‘li. Istiqlol jallodlari. (1917 yil xotiralari), T., G‘.G‘ulom nashriyoti, 1992.
22. Radjapova R. O‘zbekiston tarixi (1917-1998 yy.) T., O‘qituvchi, 1994.
23. Ravshanov P. Istibdod, 2-jild. Toshkent, “Sharq”, 2011.
24. Ravshanov P. Qatag‘on, 3-jild. Toshkent, “Sharq”, 2011
25. Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida (3 jildlik): Tajovuz, 1-jild. Toshkent, “Sharq”, 2011
26. Ravshanova G. Qashqadaryo XX asr boshlari tarixi. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2016.
27. Ravshanova G. Qashqadaryoda milliy qarshilik harakati tarixidan. (1920-1930 yy.) Qarshi., “Nasaf”, 2010.
28. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida milliy boyliklarning o‘zlashtirilishi. Toshkent, Sharq.-2001.
29. O‘zbekistonning yangi tarixi./K.2.O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.T., 2000.
30. O‘zbekiston tarixi (qisqacha ma‘lumotnoma). T., Sharq, 2000.
31. O‘zbekiston tarixi. T., Yangi asr avlodi. 2003.

#### **Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.kasu.uz](http://www.kasu.uz)
3. [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
4. [www.google.ru](http://www.google.ru)



## ILOVA


Туманлар	Жами кулок-лар	Шундан камал-ганлари	қўй	хў-киз	си-гир	туя	от	эчки	эшак	ер (га-ноб)	жу-воз	тегир-мон
Чироқчи	243	150	17044	390	361	324	426	657	194	1842	6	4
Бехбудий	105	5	500			10	5		4			
Косон	138	28	13575	4	36	367	72	1094	47	465	3	2
Ғузор	192	63	4943	30	59	113	63		32	75	2	1
Яккабоғ	270	28	15219	325	110	28		230	47	1909	21	5
Шахрисабз	114	68	1035	95	68		58	110	39	193	15	6
Китоб	218	4										
Бешкент	111	47	7796	34	49	149	103	34	79	568,5	17	3
<b>Жами:</b>	<b>1391 (+25)</b>	<b>393</b>	<b>60112</b>	<b>878</b>	<b>683</b>	<b>991</b>	<b>727</b>	<b>2125</b>	<b>442</b>	<b>5052,5</b>	<b>64</b>	<b>21</b>



**Qo'zg'olon qatnsihchilari hibsd.**



**Amir Sayyid Olimxon**



**Buxoro davlati muhri  
nishoni va pullari**

## Вейде рўйхати матни

Қашқадарё округи бўйича қулоқлар, савдогарлар,  
рухонийлар ва амир амалдорларининг  
1935 йил 25 август ҳолати бўйича

### РЎЙХАТИ

#### Чироқчи тумани.<sup>1</sup>

#### Лангар қишлоқ шўроси:

Исми шарифи	ёши	қишлоғи	мангу- лоти	тавсифи
Даврон Шарипов	38	Ғаровли	иншла- майди	қулоқ (1933 й. собик амир амалдорининг ўғли, 3 йилга камал- ган, 1 от, 1 хўкиз, 5 кўй, 8 эчки, 10 та- ноб ери олинган.
Зиқриё Турсунов	70	Тўлақўл	якка хўжалик	қулоқ, (1931 й.) жуво- зи, оти, хўжалик хў- кизи, эшағи мусода- ра этилган.
Ҳошим Одилов	70	Уйшун	далласи	савдогар, 1931 йилда қулоқ қилинган, оти, 2 хўкиз, сиғир, 45 кўй-эч- киси, эшағи, 30 таноб ери олинган, 5 йилга кесил- ган.
Иброҳим Мамадиев	28	Чим	имом	1933 йилда қулоқ қилин- ган, отаси Афғонистон- дан келган.
Қурбон Зубайдуллаев	80	Лангар	ўгли қара- моғида	эшон, 1927 йилда қулоқ қилинган, 3 йил камоқ- қа ҳукм этилган, ўгли Турди Қурбоннов билан яшайди.
Шукур Ниёзов	66	Лангар	якка хўжалик	эшон, қулоқ, 3 йил камал- ган. Оти, хўкизи, эшағи, тегирмони ва 10 таноб ери олиб кўйилган.
Бозор Нуриддинов	65	Лангар	иншла- майди	эшон, амир амалдори – мирзабоши, 1927 йилда қулоқ қилинган. Мол- мулки олинган, сайлов ҳуқуқидан маҳрум этил- ган.
Ҳайдар Жалилов	80	Тўхли	имом	1927 йилда қулоқ қилин- ган, 2 эчки ва эшағи бўл- ган, сайлов ҳуқуқидан маҳрум этилган.
Ашур Ҳасанов	50	Тўхли	якка хўжалик	имом бўлгани учун 1929 йилда қулоқ қилиниб, 2 эчки, эшағи ва 3 таноб ери мусодара қилинган.

#### Чим қишлоқ шўроси:

Ҳаким Наханов	60	Узун	якка хўжалик	қулоқ, (1930) 50 кўй, 3 от, 2 хўкиз, 15 таноб ери олинган.
Хўжан Қувонғ	45	Сарбозор	якка хўжалик	1932 йилда қулоқ қилин- ган, 3 туя, 2 от, 2 хўкиз, 70 кўй, 10 таноб ери олинган, камоққа ҳукм этилган.